

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



МЕНДЕЛЕЕВ ДМИТРИЙ ИВАНОВИЧ
(1834-1907)

2022
FEVRAL
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 69 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. Islomova Shahnoza, Nurmetova Gulchehra BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISH METODIKASI	8
2. Mirzayarova Dilrabo Mirzaazimovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	10
3. Xodjayeva Dilnoza Pazilovna BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH	12
4. Axmedova Shohista Narzullayevna BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	14
5. Murodov Ulug'bek O'tkir o'g'li O'SPIRINLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH VA PSIXOLOGIK YONDOSHUV XUSUSIYATLARI	16
6. Ё.Т.Хакимова МАЪСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ- ДАН ФОЙДАЛАНИШ	18
7. Rustamova Sayyoraxon Adxamovna 1 – 2 – SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINI O'QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	20
8. Abdullayeva Shohida Olimjonovna BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO'LLARI	22
9. Alimova Madinabonu Islomjon qizi THE PLACE OF LITERATURE IN INSTRUCTED FOREIGN LANGUAGE LEARNING	24
10. Абатов Жалғасбай Орынбаевич, Сайтбекова Айнур Жұмамурадовна МЕКТЕПТЕ ЭСТЕТИКАЛЫҚ ТӘРБИЯНЫ ҚӘЛИПЛЕСИҮ ТИЙКАРЛАРЫ	26
11. Karimova Barnoxon Qilichovna O'QUVCHILARGA HARFLARNING SHAKLINI TO'G'RI YOZISHGA O'RGATISH	28
12. Kazakova Sveta Rashitovna INFORMATIKA FANINING TARIXI VA UNDA QO'LLANADIGAN INTERFAOL USULLAR	30
13. Raximova Maxbubaxon Pozilovna O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	33
14. Ro'ziqulov Ravshan Raximovich, Ashurov Raxmatillo Mustafayevich, Isroilova Mohigul Bahodir qizi “SPORT MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARGA MILLIY VA UMUMINSONIY FAZILATLARNI SINGDIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI (KURASH MISOLIDA)”	35
15. Masharipova Niyazdjan Xaitbayevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA FIKRIY HUYUM METODIDAN FOYDALANISH	37
16. O'rinov Furqat Jamol o'g'li YOSHLAR O'RTASIDA DEVIANT XULQ-ATVORNING KELIB CHIQISH SABABLARI	38
17. Qilichova Marhabo Xudoyqulovna, Asadova Marjona Ahmad qizi BOLA TARBIYASIDA OILANING O'RNI	40

18. Qilichova Marhabo Xudoyqulovna, To‘lanova Feruzaxon Turg‘unboy qizi ZAMONAVIY TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI	42
19. Sabirova Gulnora Baxtiyarovna, Matnazarova Zuxraxon Mansurovna MASOFAVIY TA‘LIM – BILIM OLISHNING ENG MAQBUL USULIDIR	44
20. Saidmuratova Dildora Komiljanovna TARIX TA‘LIMINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI: MOHIYATI VA MAZMUNI	46
21. Dildora Shamsiyeva TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARI FIKRLASHINING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	48
22. Xasanova Farog‘at Oblayarovna TA‘LIM TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI	50
23. Yaxshilikova Nilufar G‘aybullayevna TA‘LIM VA IQTISODIYOTNING O‘ZARO BIR-BIRIGA BOG‘LIQLIGI	52
24. Yuldasheva Dildora Muhammadjonovna INTERFAOL METODLAR-MAKTABGACHA TA‘LIM YOSHIDAGI BOLALARNING KO‘P QIRRALI RIVOJLANISHI OMILI SIFATIDA	53
25. Джуманиязова Гавхар Балтаевна «ОБРАЗОВАНИЕ», «ОБУЧЕНИЕ», «ВОСПИТАНИЕ» – КАТЕГОРИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА	55
26. Дилфуза Камбарова ТИББИЙ ТАЪЛИМДА СИМУЛЯЦИОН ТАЪЛИМНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ	56
27. Ризаева Шахзодахон Фозил кизи ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КЎРГАЗМАЛИ ҚУРОЛЛАР ВА ЎҚИТИШНИНГ ТЕХНИК ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	58
28. Тураева Феруза Хайридиновна БИЛИМГА АСОСЛАНГАН ИҚТИСОДИЁТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР	59
29. Abdullayeva Vazira Zafarovna BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TADBIQ ETISHNING DIDAKTIK SHARTLARI	61
30. Elmurodova Guljaxon Gulomovna BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH KOMPITENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI (4- sinflar misolida)	63
31. Mirzayeva Baxora Yusupovna BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MA‘NAVIY KAMOLOTIDA UYGA VAZIFALARNING O‘RNI	65
32. Дилфуза Камбарова, ТИББИЙ ТАЪЛИМДА СИМУЛЯЦИОН ТАЪЛИМНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ	67



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISH METODIKASI

Islomova Shahnoza, Xorazm viloyati

Xonqa tumani 40-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998975145665

Nurmetova Gulchehra, Xorazm viloyati

Bog'ot tumani 27-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998972037872

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida boshlang'ich ta'limning o'rnini, darslarni tashkil etishda turli metodik vositalar, axborot kommunikatsiyalaridan, ularning yoshi va qiziqishlariga mos didaktik o'yinlar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: metod, pedagogik texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, didaktik o'yinlar, interfaol usullar.

Farzandlarimizning yuksak intellektual salohiyatli, har tomonlama yetuk va barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishi ko'p jihatdan umumta'lim muassasalarida beriladigan ta'lim-tarbiyaga bog'liq. O'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida boshlang'ich ta'lim davri muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni takomillashirish, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda.

Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini, yozma va og'zaki muloqot madaniyatini shakllantirish, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini yuzaga chiqarish, turli ma'lumotlar bilan ishlash savodxonligini oshirish, olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishi uchun samarali ta'limiy faoliyatni tashkil etishdan iborat. Bunda, avvalo, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining bilimi, salohiyati va kasbiy mahorati yuksak bo'lishi, shuningdek, ta'lim jarayonida turli pedagogik texnologiyalarni o'z o'rnida va oqilona qo'llay olishi muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'lim-tarbiyaning keyingi bosqichlariga asos – poydevor vazifasini o'tashi, ayniqsa, bu davrdagi bolalarning yoshi, qiziqishlari va psixologiyasi o'ziga xosligidan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur bosqichda tashkil etiladigan darslar bolalar ruhiyatiga mos, qiziqarli hamda turli o'yinlarga asoslangan tarzda tashkil etilishi shart. Buning uchun o'qituvchi darsni to'g'ri tashkil etishi, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, tashabbuskorlikka, masalalar yechimini hamkorlikda topishga, fikrni yozma va og'zaki ravishda erkin bayon etishga o'rgatib borishi, shuningdek, dars jarayonida interfaol metod hamda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan o'z o'rnida va samarali foydalana olishi muhim omillardan sanaladi. Aytib o'tilgan omillarning uyg'unligi, ya'ni o'qituvchining qobiliyati, mahorati va zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan ta'lim sifati hamda samaradorligini kafolatlaydi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan talab va e'tibor alohida o'rin tutadi. Chunki an'anaviy ta'limda o'quvchilarga faqat tayyor holda bilimlar berilgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi. Bilimlarini mustaqil qidirib topish, tahlil qilish va asosda xulosa chiqarishga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatiladi. O'qituvchi bu jarayonda ularni yo'naltirib, bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qulay ta'lim-tarbiyaviy sharoit yaratadi. Darslarni zamon talablariga mos, samarali tashkil etish darslik hamda ular asosida yaratilgan turli metodik qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar



hamda dars ishlanmalarining sifatiga ham bog'liq. Bugungi kunda maktab darsliklariga qo'yilgan talab juda yuqori. Shuning uchun ular mamlakatimizda turli darslik va o'quv adabiyotlari yaratishning ko'p yillik tajribasi hamda dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida erishilgan yutuqlarni qiyosan o'rganish, ularning eng maqbullaridan foydalanish asosida yaratilmoqda. Natijada darslik va o'quv qo'llanmalar bolalarning to'laqonli va sifatli ta'lim olishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Interfaol ta'lim, o'z xususiyatlariga ko'ra, didaktik o'yinlar orqali. Kreativ ijodkorlik asosida, axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Interfaollik, avvalo, o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik – o'quvchi-o'quvchi, ya'ni subyekt-subyekt munosabatlarida sodir bo'ladi. Interfaol ta'limda darslar shunday kechadiki, bunda ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilganlari bo'yicha o'zaro fikr almashtirish va umumlashtirishasosida mustaqil ravishda xulosa 56 Ноябрь 2021 10-қисм Тошкент chiqarish, shu orqali olingan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash jarayoni sodir bo'ladi. Qolaversa, bunday tarzda tashkil etilgan datslarda o'quvchilarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalariga mos didaktik o'yinlar, evristik suhbatlar, qiziqarli multimedialardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Matematika darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish va fikrlash orqali o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida multimedia ilovali dars ishlanmalari tayyorlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. G'ulomov, M. Qodirov “Ona tili O'qitish metodikasi”. Toshkent. 2001-y.
2. B. Abdullayev, M. Toshpulatova. Matematika. Metodik qo'llanma. 2016-y.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mirzayarova Dilrabo Mirzaazimovna,

Namanagn viloyati, Davlatobod tumani 64- maktab

1-toifali boshlangich sinf o'qituvchisi

Tel:998 99 012 84 85

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda innovatsion zamonaviy o'qitish orqali o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, topqirlikka, hozirjavoblikka o'rgatishi hamda ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi, faollashtirishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy, o'yin, texnologiya

O'zbekistonning kelajagini buyuk davlat darajasiga ko'taradigan ijodkor shaxsni yaratishda boshlang'ich ta'lim poydevor vazifasini bajaradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy maqsadi – o'quvchilarning bilimli, va fikrlash doirasi keng bo'lishini ta'minlashdir. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Darslarni tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'z navbatida yangi metodlarni qo'llagan tarzda o'tkazishni taqozo etadi. Bu metodlar bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda olib borilishi lozim. Darsni sifatini yanada oshirishga xizmat qilishi lozim. Bu tarzda darslarni tashkillashtirish, ayniqsa, boshlang'ich sinflarida yaxshi samara beradi. Chunki boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning psixologik holati katta sinf bolalarinikidan ancha farq qiladi. Ularni darslarga qiziqitirishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta bo'lib, asosan, ko'rgazmali qurollar, turli interfaol o'yinlarni pedagogik texnologiyalar asosida dars mashg'ulotlarida qo'llash ancha qiziqarli va oson kechadi. Bugungi kunda ta'limda “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar”, “Sinkveyn”, “BBB”, “Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash”, “Beshinchisi ortiqcha”. “6*6*6*”, “Bahs-munozara”, “Rolli o'yin”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Yumaloqlangan qor”, FSMU, “Zigzag”, “Oxirgi so'zni men aytay”, “Bumerang” “Klaster”, “Keys-stadi”, “Zinama-zina”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Blist-so'rov” kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Quyida shunday “Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash”, “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi...) ortiqcha” metodlarini ko'rib chiqamiz. Bu metod o'zining ko'plab maxsus xususiyatlari bilan boshqa metodlardan ajiralib turadi. Chunki bu metodda boshlang'ich sinf o'quvchilar bir vaqtning ichida o'tilayotgan darsdan tashqari rasm darsini, geometrik shakllarni ham o'rganishi mumkin. Rang va shakllar boshqotirmasi metodi quyidagi shaklda tashkillashtiriladi: Elektron doskaga rang va shakllar boshqotirmasining tasviri tushuriladi. Tasvirda vertikal holatdagi rangli shakllar joylashgan bo'ladi. - 1 – aylana, 2 – uchburchak, 3 – to'rtburchak... va h.k. Shakllar mavzuni talabidan kelib chiqib ortib boraverishi mumkin. U shakllarga gorizantal holatda xuddi shu shakllar o'rin almashgan holatda joylashtirilib chiqiladi. O'tilayotgan mavzunning savoli yoki jumboqli qisqa jummalari, so'zlari birinchi ustundagi rangli shakllarga yozib chiqiladi. O'sha savollarning javobi esa keyingi ustundagi rangli shakllarga yoziib chiqiladi. O'quvchilar esa navbatma-navbat doskaga chiqib savollar yozilgan rangli shakllarni to'g'ri javob yozilgan rangli shakllarga birlashtirishi lozim bo'ladi. O'quvchi savolga to'g'ri javob topgan bo'lsa ikkita rang birlashgan holda yangi rang hosil bo'ladi. O'quvchi savolga noto'g'ri javob bergan bo'lsa ranglar birlashmaydi.

O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi...) ortiqcha” metodi alohida ahamiyatga egadir. Uni qo'llashda quyidagi harakatlarni amalga oshirish kerak bo'ladi: 1. O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish; 2. O'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish; 3. O'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy



bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim). Mazkur metod o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchilarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchilarning bilimlarini mavzuni yaxshi egallashlariga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, „Ta'limda innovatsiya” T; Istedod – 2010.
- 2.Bakiyeva H. Boshlang'ich sinflarda so'z ustida ishlash metodikasi. –T.: Istiqlol. 2013.
- 3.R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Xodjayeva Dilnoza Pazilovna

Toshkent shahar, Uchtepa tumani
193 IDUM boshlangich sinf oqituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali dars jarayoniga qiziqish uyg'otish va ushbu jarayonda qo'llaniladigan ayrim didaktik o'yinlar tog'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: dars, ijodkorlik, boshlang'ich sinf, ijodiy fikrlashi, talim-tarbiya.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, intellektual salohiyatli avlod va unga talim-tarbiya berish sifatiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasida yosh avlodning ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va uzluksiz rivojlantirib borish o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, ularda bilimni egallash faolligi, mustaqil bilish faoliyatini shakllantirish masalalariga bog'liq. Bunda kichik yoshdagi maktab o'quvchilari bilan ularning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirib borish, amaliy ko'nikma hosil etish vazifalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yosh avlodning aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasi va tafakkur qobiliyatini bilmasdan turib, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mushkul. Didaktik o'yin usullarini cheksiz takrorlash va o'zgartirish, o'yinga turli narsalar kiritish ijodkorlik faoliyatining oshishiga imkon beradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi.

Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok qiladi. Odatda bolalar o'z sheriklariga dalda berib turadilar, agar o'rtoqlari topshirig'ni to'g'ri bajarsa, undan behad xursand bo'ladilar va u bilan faxrlanadilar. O'yin o'tkazilayotgan paytda bolalarda hasad, qizishib ketish singari salbiy xislatlar uchramaydi. Didaktik o'yinlar ijodiy shaxs tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin, uning har bir takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, "Farqini top" o'yinida, stol ustiga turli narsalar terib qo'yiladi va bola bu narsalar nomini eslab qolishi kerak. Keyin bola o'girilib turadi va o'yin boshlovchisi narsalar joyini o'zgartiradi yoki biror narsani olib qo'yadi. Bola stol ustida nima o'zgartganini topishi kerak.

"Narsa nomini top" o'yinida har qanday joyda-uyda, sayr qilayotganda, maktabga ketayotganda o'ynash mumkin. Bolaga ma'lum bir shaklli, rangli, biron-bir ko'rsatilgan materialdan tayyorlangan yoki aytilgan harfdan nomi boshlanadigan narsani topish topshiriladi.

"Bezak chizish" o'yinida rangli qalam yordamida istalgan bezak chiziladi, keyin bola rasmni tugatishi uchun imkon beriladi. Aytgancha, bezak o'rniga mozaika yoki oddiy sanoq rangli tayoqchalaridan foydalanish mumkin.

"Labirint" o'yinida o'quvchilarga kichik sarguzasht uyushtiring, u chizilgan labirintdan nigohi yordamida o'tsin, agar bunga qiynalsa, qalam yordamida o'tishiga ruxsat bering.

"Kim tog'ga tez chiqadi?" o'yin mashqi

Sinfni ikki guruhga bo'lib olinadi. Kerakli savollar taxtaga yozib qo'yiladi (har bir ishtirokchi bittadan kelib savollarga javob berib, navbatma-navbat tez va chaqqon aniq va to'g'ri javob berishlari shart).

Mashq maqsadi: O'quvchilarning bilim olishga qiziquvchanligi ortadi. O'tilgan mavzular bo'yicha bilim va ko'nikmalarining mustahkamlanib borishiga imkon yaratiladi.

"Birni o'rsang, o'nni ek" o'yin-mashqi

O'yin-mashqning qoidasi: O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, o'larga tarqatma material daraxt maketi (1 ta dan) tarqatib beriladi. Daraxtlarning yon tomoniga savollar yozilgan. Berilgan



savollar test usulida berilgan. Belgilangan 1 daqiqa davomida o‘quvchilar test savollariga javoblar beradi (daraxtlarni magnit taxtasiga ilib qo‘yadilar. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgandan keyin. Savollarning javoblari nazorat qilib ko‘riladi). Baholanadi.

“Kimning uyasiga ko‘p qush keladi?” o‘yin-mashqi

O‘yin qoidasi: Taxtaga aplikatsiya usulida ishlangan qushlar uyasi ilib qo‘yiladi. Qushlar maketi orqalariga kerakli savollar yozilgan, o‘quvchilar savollarga javoblar berib, taxtaga qushlar maketini skotch bilan yopishtirib boradilar. Ko‘ribsiz-ki, sinfimizda o‘quvchilar ishtiroki bilan yaxshigina ishlangan ko‘rgazmali qurol hosil bo‘ladi.

SHu kabi o‘yinlarni dars mavzusiga mos ravishda o‘tkazib borish dars samaradorligini oshirish va ijobiy natijalarga erishishga ko‘mak beradi.

Adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq, 1997.
2. Bikbaeva N.U., Sidelnikova R.I., Adambekova G.A. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi: O‘rta maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2019.
3. Bikboeva N.U., Axmadjonov I.G., YAngiboeva E.YA., Adambekova G.A. Birinchi sinf matematika darsligi. – T.: O‘qituvchi, 2019.



BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Axmedova Shohista Narzullayevna

Qashqadaryo viloyat Koson tuman
94-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarni o'qitishda ilg'or zamonaviy texnologiyalar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida fikr boradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, Texnologiya, Pedagogik texnologiya.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiyl metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda turli xildagi yangidan yangi metodlardan foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda. Sababi, ta'lim oluvchi o'quvchilar ham aynan zamon ruhiga mos shakllanib kelayotgani hech kimga sir emas. Boshlang'ich ta'lim o'qitish texnologiyasiga e'tibor qaratadigan bo'sak, birgina o'qish fanini o'quvchilarga o'rgatish uchun juda ko'plab, turli xil metodlar qo'llanishini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchiga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Bunga misol qilib, 4-sinf ona tili darslarida foydalanish uchun yaratilgan “Kelishiklar” mavzusidagi elektron taqdimotni aytish mumkin. Elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari o'quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalaniladi. Kitob. uz saytida 1-4 sinf o'quvchilari uchun deyarli barcha fanlarning elektron darsliklari mavjud. Ammo ular matn va ovoz shaklida taqdim etilmagan. Elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida, slaydshou ko'rinishda berish maqsadga muvofiq. Audio va video axborotlarning o'zaro birgalikda qo'llanishi o'qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'lib, quyidagi rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda. Dastlab bu tushuncha 1940 yillardan 50-yillar o'rtasigacha «ta'limda texnologiya» deb qo'llanilib, o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQSHda qo'llana boshlagan. Bunda “pedagogik texnologiya” va “ta'lim texnologiyasi” ifodalari faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llangan edi. Oradan vaqt o'tishi davomida shu ifodalarni qo'llash darajasi kengayib borishi natijasida ularning ma'nolari ham tegishlicha o'zgarib bordi.

O'qish faoliyatning asosiy turi bo'lib, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o'qish malakalarini o'stirish va takomillashtirish ustida tizimli va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi. O'qish malakasini egallash ancha murakkab bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Ruhshunos olim T. G. Yegorov o'zining “Очерки психологии обучени детей чтению” nomli asarida o'qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: *analitik bosqich*, *sintetik bosqich* va *avtomatlashgan bosqich*. **Analitik bosqich** savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi, bunda so'zni bo'g'in-harf tomonidan tahlil qilish va bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi. **Sintetik bosqich** uchun so'zni sidirg'a o'qish xarakterlidir; bunda so'zni ko'rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so'z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O'qish so'z ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O'quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o'tadilar. Bundan keyingt yillarda o'qish **avtomatlasha** boradi.

Pedagogik texnologiya — bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya'ni o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari



yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbiridir (B.Ziyomuhamedov). Pedagogik texnologiya bu — ob'ektiv, moddiy jarayon. Agar biz o'quv-tarbiya jarayonidan uning ob'ektiv, moddiy (substantsiyalik) jihatini ajrata olsak, shunda biz texno-logiyaga, eng kamida uning tafsilotiga ega bo'lamiz (V.K. Dyachenko).

Ma'lumki, ta'lim – tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi. Insoniyat hayoti axborotlar bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda, insonning har bir harakati axborot olish yoki uzatish yoki undan foydalanish yoki uni o'rganish, o'zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining “ Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori . – Toshkent: “ sharq “ nashriyot-matbaa konserining Bosh tahririyati, 1998.
2. Abdullayeva Q.Yangi pedagogik texnologiyalar // Boshlang'ich ta'lim, 1999, 4-son



O'SPIRINLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH VA PSIXOLOGIK YONDOSHUV XUSUSIYATLARI

Murodov Ulug'bek O'tkir o'g'li

BDU psixologiya fakulteti magistri

ulugbekmuradov25@gmail.com +998945449151

Annatatsiya: Ilk o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlaridan biri bu jismoniy jihatdan voyaga yetishi, maktabni bitirgandan keyin mustaqil hayot kechirish, ishlab chiqarishda mehnat qilishi va oliy o'quv yurtida o'qishi uchun yetarli bo'ladigan g'oyaviy va ma'naviy yetuklik darajasiga erishishdir. Bu davrning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri fuqarolik pasportini olishi, saylash va saylanish huquqini qo'lga kiritilishi bularning barchasi uning fuqaro sifatida yetukligining ko'rsatkichidir. Shu sababdan, ushbu maqola: o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlari, shaxsining shakllanishi, o'quv faoliyati va aqliy rivojlanish, kasb tanlash va bu boradagi nazariyalar haqidagi bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ilk o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlari, shaxsining shakllanishi, o'quv faoliyati, aqliy rivojlanish, kasb tanlash.

O'smirlik davrida shaxsning rivojlanishida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ladi bu albatta ilk o'spirinlik davridan keskin farq qiladi. Uning ijtimoiy faoliyati ko'pincha maktabdan tashqariga chiqadi ya'ni u odatda maktabda tashkilotchilik rahbarlik va tarbiyaviy funktsiyalarni bajaradi. Ravshanki uning jamiyatdagi mavqei keskin ravishda o'zgaradi va shaxsning shakllanishiga muhim ta'sir etadi. Avvalo bu davrda yigit va qizlarda o'z-o'zini anglash sezilarli ravishda o'sadi. Biroq bu anglash oddiygina o'sishdan iborat bo'lib qolmay u sifat jihatidan o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi bu hol o'z shaxsining ma'naviy-psixologik xususiyatlarini aniq hayotiy maqsadlar va intilishlar nuqtai nazaridan anglash va ularga baho berish ehtiyoji bilan bog'langandir. Ilk o'spirin shaxsida o'zining psixik hayotiga o'z shaxsining sifatlariga o'z qobiliyatlariga chuqur qiziqish o'yg'otadi, xuddi shuning uchun ham xatti-harakatlariga nazar tashlash o'z his-tuyg'ularini va kechinmalarini bilib olish ehtiyoji paydo bo'ladi. O'z-o'zini anglash o'quvchining ichki kechinmalari dunyosiga kirishi bilan bog'liq emas va foydasiz, maqsadsiz o'z-o'zini tahlili qilishdan ham iborat emas. O'z-o'zini anglash hayot va faoliyat talablaridan kelib chiqadi. Jamoadagi yangi vaziyat tevarak atrofdagilar bilan bo'ladigan yangicha munosabatlar o'quvchining o'z imkoniyatlarini baholashga o'zining shaxsiy xususiyatlarini o'ziga nisbatan qo'yilayotgan talablarga javob bera olishi yoki javob bera olmasligi nuqtai nazardan anglashga majbur qiladi. Ilk o'spirin yoshidagi o'quvchilar o'zining kuchli va ojiz tomonlarini o'zning ustunlik va kamchiliklarni o'smirlarga qaraganda yaxshiroq va chuqurroq baholay oladi. Biroq o'smir tomonidan o'z o'ziga baho berish birmuncha ob'ektivroq bo'lib bu ularga kattalar tomonidan berilayotgan fikr va mulohazalarga tayaniladi. Ilk o'spirinlik davrida esa bu boshqacharoq tarzda amalga oshiriladi ya'ni yoshning ortishi bilan unda o'z shaxsini o'z xatti-harakatlari va faoliyatini mustaqil tahlil qilish va baho berish an'anasi kuchayadi. O'z o'ziga baho berish esa hamisha tashqaridan berilgan bahoni anglashdan ko'ra qiyinroqdir. O'z shaxslarini tahlil qila olsalar ham ular o'zlariga nisbatan ob'ektiv baho bera olmaydilar. Ayrim paytlar o'zlariga nisbatan juda yuqori baho beradilar. Ilk o'spirinlik davrida endi shaxsning ko'p qirrali munosabatlarini ifodalovchi sifatleri anglanadi. O'smir o'zning hozirgi ahvoriga muvofiq ravishda o'ziga baho bersa ilk o'spirin o'zining kelajagiga muvofiq ravishda o'ziga baho beradi. Masalan men maktab jamoasi a'zosi sifatida qandayman? desa o'spirin men kelgusi mustaqil hayot uchun qandayman? degan savolni beraman. O'z-o'zini anglash negizida o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyoji o'sadi bu endi ayrim sifatleri yo'qotish ayrimlarini rivojlantirishdan iborat bo'lmay balki ma'lum bir ideallarga bog'liq bo'ladi. Ularga odam fiziologiyasi genetikasidan ma'lumki organizmdagi barcha xususiyatlar tug'ma bo'lib ularni o'zgartirishning hech ham ilojisi mavjud emas degan xulosaga keladilar. Ilk o'spirinlik davrida ideallar ikki asosiy shaklda mavjud bo'ladi ya'ni biron-bir aniq kishining obrazi o'smirdagidan ko'ra kamroq ideal bo'ladi ilk o'spirin yoshidagi o'quvchi ana shu obrazda o'zi yukasak darajada qadrlaydigan sifatleri gavdalanishini ko'radi. Ideal sifatida ijobiy sifatlar bilan birga salbiy sifatlardagi insonlarni ham qabul qiladilar. Ilk o'spirinlik davrida ahloqiy tushunchalarni juda yuksak darajada anglaydilar deb bo'lmaydi. Bu jarayonda pedagoglar tomonidan olib borilayotgan ta'lim tarbiya ko'rsatilayotgan kinolar muhim rol o'ynaydi.



O'spirinlik davrida vujudga keladigan xis-tuygularni to'g'ri idora etish, yigit va qizlarga sevgi munosabatlarining naqadar nozikligini bo'lajak oilaning baxti haqidagi tushunchalarni to'g'ri anglatish yaxshi natija beradi. O'qituvchilar va ota-onalar o'spirin yigit va qizlarga sevgining ikki turi-shaxvoniy tuyg'u zamirida vujudga keladigan beqaror sevgi va chinakam do'stlik, insoniy munosabatlar asosida paydo bo'ladigan haqiqiy sevgi borligini tushuntirishlari lozim. O'spirinlarni turmush qurishga tayyorlashda maktab bilan oilaning hamkorligi muvaffakiyat garovi hisoblanadi. O'spirinlarga oila qurish haqida tushuncha berishda baxtli, tinch-totuv yashash, bir-biriga ishonch, sadoqat bolishi kerakligini uqtirish bilan birga ularni oilaviy turmushda yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan ham ogoxlantirish kerak

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. V. Karimova, O. Hayitov. Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi. - T.: 2007
- 2.. V. Karimova. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot. T.: 2009.
- 3.Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi.
- 4.Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi uning oldini olish muammolari. -Qonun himoyasida T. Ne1. 2001y.
- 5.Giddens E. Sotsiologiya. Toshkent - Sharq, 2002.



МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ.

Ё.Т.Хакимова

Қўқон давлат педагогика институти
Информатика кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада Олий таълим муассасаларида масофавий таълимни ташкил этишда ахборот технологияларининг вазифалари ва синергетик ёндашувдан фойдаланиб масофавий таълимни ташкил этиш тўғрисида фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: масофавий таълим, синергетика, интеграция, башорат, визуал, таълим бериш, шахсга йўналтирилган.

Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23-сентябр куни қабул қилинган «Таълим тўғрисидаги» Қонуни 2-боб 16-моддасига мувофиқ, таълим муассасаси таълим дастурларини амалга оширишда электрон таълим ва масофавий таълим технологияларидан фойдаланиш ҳуқуқига эга.

Талабаларни масофавий ўқитиш тизими бўйича ўқитишда ахборот-технологияларнинг қўлланилиши кўп аспектлик, максимал камраб олиш, касбга йўналтирилганлик, мутахассиснинг қадриятлар тизими тамойилларига асосланган бўлиши лозимлигини таъкидлаб ўтиш зарур.

Масофавий таълимда ахборот-технологияларидан фойдаланганимизда қуйидаги асосий функцияларни амалга ошириш мумкин:

- интегратив;
- таълим бериш;
- башорат;
- шахсга йўналирилганлик;
- рағбалантириш ва бошқалар.

Ушбу функцияларни самарали амалга ошириш ўқитишнинг шахсга қаратилган йўналтирилганлик хусусиятини; ахборотдан интерфаол фойдалана олиш имконияти ва унинг илмий-касбий талабларга мувофиқлигини; масофавий ўқитиш курслари талабаларининг интеллектуал ва ижодий қобилиятларини ривожлантиришни таъминлайди.

Визуал ахборотнинг деярли ҳар қандай шакли одатда, ахборотни таҳлил қилиш, синтез қилиш, умумлаштириш, йиғиш ва жойлаштириш асосида амалга ошириладиган муаммоларни ҳал қилиш каби таркибий қисмларни ўз ичига олишини таъкидлаш муҳимдир.

Ахборот-технологиялари орқали ўқув ахборотларини кўргазмалли шаклга келтириш материални янада жадал ўзлаштиришга ёрдам беради, талабаларга тизим алоқалари ва қолипларини излашга йўл кўрсатади.

Ундан масофавий таълимда фойдаланиш синергетик ёндашувга асосланган бўлиб, унинг таркибидаги омилларнинг биргаликдаги ҳаракати натижасида тушунилади ва ушбу омиллар йиғиндисидан олинган натижа ҳар бир алоҳида олинган омилнинг натижасидан ошиб кетади.

Шундай қилиб, педагогик таъсир ижодий ва интуитив, назарий ва амалий тафаккурни ривожлантириш касбий муаммолар ечимини излашга, малака ва кўникмаларни шакллантиришга қаратилади.

Олий таълим муассасаларидаги ахборот-таълим муҳитининг етакчи хусусиятларидан бири, унинг синергетик ва маданиятлараро хусусиятидир. Бу нафақат, ахборот жамиятининг жадал ривожланиши, балки педагог олимларнинг чизикли формат доирасига сиғмайдиган кўп ўлчовли таълим муҳитининг турли жиҳатларини очиқ беришга бўлган «интилишлари» билан ҳам боғлиқ. Педагогика олий ўқув юртларидаги масофавий ўқитиш тизимида синергетик ёндашувни амалга ошириш билан боғлиқ «муаммоларнинг энг долзарб ўрнида» туради.

Синергетиканинг таълим жараёнини ташкил қилиш ва бошқариш замонавий психологик-педагогик ва дидактик-методик назариялари ва технологияларининг мажмуаси деб бемалол ҳисоблаш мумкин. Маълумки, олий таълимда таҳсил олувчиларни ўқитиш уларнинг мустақил, фаол ва ўз-ўзини назорат қиладиган, билиш фаолияти орқали таҳсил



олувчиларнинг билим ва кўникмаларини шакллантириш жараёнини асослайдиган компетентлилик, фаолият-шахсга асосланган, аксиологик ёндашувларга асосланади. Шунга асосланиб масофавий таълим технологияларининг ривожланиши билан электрон таълимда синергетик ёндашувнинг роли ортиб бораётганини инкор қилиб бўлмайди.

Масофавий таълим технологияларидан фойдаланиш тартиби таълим муассасаларида фақат электрон ва масофавий таълим технологияларидан фойдаланган ҳолда, таълим дастурларини амалга оширишда электрон ахборот ва электрон таълим ресурслари, ахборот ва телекоммуникация технологиялари ва курс талабаларининг касбий компетенциясини оширишни таъминлайдиган тегишли технологик воситаларни ўз ичига олган электрон ахборот-таълим муҳитининг ишлаши учун шарт-шароитлар яратилиши керак.

Масофавий таълим технологиялари деганда, асосан, ахборот ва телекоммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда таҳсил олувчи ҳамда педагог ходим орасида билвосита ёки тўлиқ бўлмаган билвосита ўзаро фаолият тарзида амалга ошириладиган таълим технологиялари тушунилади. Масофавий таълим технологияларидан фойдаланган ҳолда, ўқитиш давлат таълим стандарти ва тегишли таълим соҳаси учун ўқув режасида назарда тутилган барча талаблар бажарилишини таъминлаши зарур.

Демак, таълим жараёнини масофавий таълим технологияларидан фойдаланган ҳолда ташкил этиш замонавий олий таълимда масофавий ўқитиш дастурларини муваффақиятли амалга ошириш шартларидан бири, деб хулоса қилиш мумкин.

Касбий таълим назарияси ва методикаси соҳасидаги кўплаб тадқиқотлар масофавий таълим технологиялари ёрдамида ўқитиш таҳсил олувчиларнинг мустақил ишларини ташкил этишнинг қулай шакли эканлигини кўрсатди (Г.И.Ибрагимов, К.Р.Овчинникова).

Масофавий таълим замонавий инфокоммуникацион технологиялардан фойдаланган ҳолда турли хил ўқитиш методларидан, жумладан, интерфаол методлардан фойдаланиш имконини беради. Бу олий таълим муассасасида масофавий ўқитиш тизими талабалари учун ҳам муҳим ва долзарбдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Арипов М., Тиллаев А. Масофавий таълим // Физика, математика ва информатика. – Тошкент, 2002 – №2. – Б. 12-18.
2. Абдуқодиров А.А. Масофали ўқитиш моделлари ва уларнинг синфлари // Физика, математика ва информатика. – Тошкент, 2000. – №5. – Б. 50-56.
3. Г.И. Ибрагимов. Непрерывная педагогическая подготовка учителя в системе до-профессионального и профессионального образования. Доктор педагогических наук. 1999
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
5. Мирзиёев Ш.М. «Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови» мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.
6. К.Р. Овчинникова . Педагогические условия формирования информационной культуры студента в процессе освоения компьютерных технологий. кандидат педагогических наук-1999.



1 – 2 – SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINI O'QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Rustamova Sayyoraxon Adxamovna

Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani
XTBga qarashli 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: shaxs, ezgu fikr, ezgu amal, ezgu so'z, inovatsiya, ijodkorlik, erkin fikrlilik, nutq madaniyati, dars samaradorligi.

O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligini to'g'ri tashkil eta bilish lozim. Fikrini o'stirish, fikrlashga o'rgatish, kelajakka sog'lom fikrli bolani tarbiyalash ona tili va o'qish savodxonligining asosiy vazifalaridan biridir. Ayniqsa, bola fikrining kengayishida sodda so'zlardan murakkab so'zlarga o'tib borishi yosh xususiyatlariga moslab davlat ta'lim standartlari asosida joylanganligi o'ta muhimdir. darslarni to'g'ri va samarali tashkil qila olish o'qish samaradorligini oshiradi, ma'naviy ozuqa olishning yana bir yo'li hamdir.

Hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ta'lim sohasidagi tub burilishlar aynan har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlaydigan yosh avlod ta'lim tarbiyasi uchunligi hech birimizga sir emas. Buning uchun ta'lim sifatini oshirish maqsadida „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va

„Davlat ta'lim standarti”ning yo'lga qo'yilishi, boshlang'ich sinflarda ta'lim- tarbiya masalalariga kuchli e'tibor qaratish va bu yo'lda o'qituvchi, pedagoglar oldiga bir qancha talablar qo'yilmoqda

2-sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligida keltirilgan Kamola Sodiqlik qizining “Kimni qo'shni deymiz?” hikoyasini ko'rib chiqamiz:

KIMNI QO'SHNI DEYMIZ?

Bobo: – O'g'lim, qo'shnimiz Farida xolanikiga chiqib, uy ishlariga yordamlashdingmi?

Temur: – Bobojon, ko'cha boshidagi Abdullohning buvisini aytyapsizmi? Uylari uzoqda-ku, ularni ham qo'shni deymizmi?

Bobo: – O'g'lim, uyimizning oldi tarafidagi qirq hovli, orqa tarafidagi qirq hovli, chap tarafidagi qirq hovli, o'ng tarafidagi qirq hovlining hammasi bizga qo'shni hisoblanadi.

Temur: – Voybo' o'...

Bobo: – Unutma, hozir ham, katta bo'lganingda ham mahalladoshlaring bilan ahil bo'l. Ularga yaxshilik qilishdan qochma!

Temur: – Albatta shunday qilaman!

Hikoya birinchi o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi va o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

- 1 Kimlarni qo'shni deymiz?
- 2 Temurning bobosi aytgan fikrga qo'shilasizmi? Nima uchun?
- 3 Mahalladoshlar bilan ahil bo'lish uchun nima qilish kerak?
- 4 Mahallangizdagi odamlarga qanday yaxshilik qilishingiz mumkin?

Keyin hikoya o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi, so'ngra keying topshiriqda aytilganidek: *Partadoshingiz bilan biringiz bobo, biringiz bola bo'lib dialogni qayta o'qing. So'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qiling.*³

O'quvchilar baholanadi va rag'batlantiriladi.

Usul va metodlar o'quv jarayoni sifatini hal qilib beradi. O'quvchining ongli va kuchli o'zlashtirishida, faollikning rivojlanishiga ham ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. O'qituvchining metod va usullarni to'g'ri tanlay olishi darsda o'tiladigan mavzuga bog'liqdir. Yangi mavzu bayoni uchun bir metod qo'llansa, uni mustahkamlash, umumlashtirish uchun yana bir metod qo'llaniladi. darsni samarali o'tkazish uchun o'tiladigan metodlar puxta o'ylanishni talab qiladi.

„Darhaqiqat, o'quvchi ma'naviyatiga, axloqiga ta'sir qilish, komil inson qilib tarbiyalash uchun badiiy adabiyotni o'qib berishning, o'rgatishning o'zi kamlik qiladi. Bu yo'lda shaxsiy namuna,



o‘rganganlarini amaliyotda qo‘llay olish ham katta ahamiyat kasb etadi’.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon o‘qituvchidan ijodkorlikni, erkin fikrlilikni, yangi texnologiyalar asosida ish olib borishlikni talab qiladi. unda pedagogik tajribaning yuqori bo‘lishi, muloqot madaniyati, nutq madaniyatining shakllangan bo‘lishi, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining mavjudligi, bilim, ko‘nikma va malakaning namoyon bo‘lishi, uning pedagogik mahoratga ega ekanligini ko‘rsatadi. Darsning samaradorligi-o‘qituvchining mahoratiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A‘zam Xoliqov „Pedagogik mahorat” „Tafakkur-Bo‘stoni” Toshkent- 2011, 124- bet.
2. Karimov I.A. Barkamol Avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori- Toshkent, Sharq nashriyoti-matbaa konserni 1997



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO'LLARI

Abdullayeva Shohida Olimjonovna

Namangan viloyat To'raqo'rg'on tumanidagi
23-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi


Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish masalasi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib hizmat qilmoqda. An'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, noan'anaviy ta'lim texnologiyalari esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishini, shakllanishini, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyalarini bajaradi.

Quyida ana shunday interfaol usullardan namunalar keltiramiz.

“So'z daraxti chizish” usuli. Ushbu usul orqali o'quvchilarning imlo savodxonligini, so'z va nutq boyligini oshirish hamda mantiqiy fikrlash doirasini kengayishiga erishilishi mumkin.

Ona tili darslarida yozma ishlar tahlili o'tkazish jarayonida o'quvchi o'zi xato qilgan so'zni daraxtga joylashtirib, bu so'z necha bo'g'indan iboratligi, bo'g'inlardan yangi so'zlar hosil bo'lishini yodda saqlaydi va kelgusida ana shu so'zni bexato yozishni o'rganadi.

Masalan: **Xirmon** so'zining archa daraxtiga quyidagicha joylashtirish mumkin:



Xirmon so'zini daraxtga joylashtirishda so'zning aslini daraxt tanasi deb olsak, uning bo'g'inlarini daraxt shoxlari. Bo'g'inlardan hosil qilingan so'zlarni archaning barglari deb olinadi. Bunda, o'quvchilarni so'z boyligi, imloviy savodxonligi va tasviriy faoliyat bo'yicha qobiliyatlari oshadi.

“Topsang senga, topmasang menga” usuli. Bu metodda o'quvchilar doskaga chiqib, tovoqdagi olmalardan birini olib, olmada ko'rsatilgan qo'shimchalar ishtirokida so'zlar hosil qilishlari talab etiladi. Agar mana shu qo'shimcha yordamida so'z hosil qila olsalar, olma o'zlarida qoladi. Javob bera olmasalar, olma o'qituvchining o'zida qoladi. Albatta, ma'lum vaqt belgilanadi.

“Kim zukko” usuli. Sinfidagi o'quvchilarning qiziqishiga, bilim darajasiga qarab biroz murakkablashtirilishi mumkin. Bunda ularga “Bolaning bobo bo'lish” hamda “Qizchani buvi bo'lish” jarayonigacha qo'llaniladigan so'zlarni topa olishi topshiriq qilinadi. Bunda o'quvchilar quyidagicha so'zlarni topa olishlariga imkoniyat yaratiladi. Masalan:

Bolaning bobo bo'lish jarayonigacha qo'llaniladigan so'zlar:



Bola:

Farzand – nabira – jiyan – bog’chadosh – uka – aka – o’quvchi – sinfdosh – partadosh – maktabdosh – fikrdosh – askar – xizmatdosh – talaba – kursdosh – xonadosh – kasbdosh – turmush o’rtoq – er – boja – kuyov – qaynog’a – pochcha – yelkadosh – ota – dada – ada – umr yo’ldosh – jufti halol – ko’z ochib ko’rgani – tan mahrami – yori – to’rasi – begi – xo’jayini – erkagi – hayot yo’ldosh – qo’shni – mahalladosh – tog’a – amaki – quda – qaynota – chol – mo’ysafid.

Shunday qilib, interfaol usullar o’quvchilarda yangi bilimlarni egallash, o’tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish, mantiqiy, tanqidiy, mustaqil fikr va tafakkurini oshirish kabi bir qator vazifalarni yechishda samarali yo’l hisoblanadi. Bu metodlarni o’tkazish jarayonida o’quvchilar o’rtasida o’zaro musobaqalashish, baxs-munozara yuritish ruhiyatining bo’lishini ta’minlash zarur. Bu esa o’quvchida muammolarni qo’ya bilish, uni yechish, hal qila olish, mustaqil fikrlash, mantiqiylik, ob’ektivlikka nisbatan qiziqishni shakllantiradi, muammoni yechishda o’zini tuta bilish ko’nikmalarini ham shakllantiradi va hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayakubov Sh.K., R.X. Ayupov Interfaol ta’lim usullari. Toshkent, 2010.
2. Umumta’lim maktabi o’qituvchilari uchun o’quv modullari 1-modul: O’quvchi shaxsini rivojlantirishga yo’natirilgan ta’lim. “IPAK YO’LI POLIGRAF” nashriyoti. 2013, B-40.
3. G’afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O’qish darsligi. 3-sinf. - Toshkent. 2019.
4. www.ziynet.uz



THE PLACE OF LITERATURE IN INSTRUCTED FOREIGN LANGUAGE LEARNING

Full name of author: **Alimova Madinabonu Islomjon qizi**
Student of UzSWLU 1-course. E-mail: bonumadina008@gmail.com

Annotation - The renewal in the use of literature in language teaching has been accompanied by an increasing number of research articles in this area. Research has looked at the type of language which arise from classroom discussions about literature, as well as at the views of teachers and learners. Importantly, the reactions that learners have to incorporating literature in their language lessons are linked to the type of approach and type of task that are used in the classroom.

Key words: interaction, incorporation, target.

It is important to remember that classroom interaction can be explored through the testimony of a practitioner reflecting on what they do in class. Such papers are even more noteworthy when we realise that, they are often a description not of one experience, but of repeated experiences and indeed experimentation with literature in classroom. In literature of English, at the secondary school level cuts across the three genres of literature and the literary appreciation of recommended texts for final examination. There are a wide range of theories related to learning a language through literature. The socio-cultural theory suggests that learning is something social. According to this theory, people learn different skills and follow certain practices within the community. The same can be applied to language learning: students can only learn a language properly if they are involved with target culture.

Literature is the reflection of life. Writers write about their society and culture in different literary pieces. Any piece of literature can help students to take interest in the target language and they will be able to communicate accordingly in different situations. With the advancement of information technology, the teaching of a foreign language changes fast, not for the tools we have at our disposal, but also for our perception of it. Students engage with the attitudes and opinions expressed by the author or the characters. This helps students to develop their sense of self, their moral code and their understanding of the world. Literary texts are representational rather than referential (McRae, 1994). Referential language communicates at only one level and tends to be informational. The representational language of literary texts involves the learners and engages their emotions, as well as their cognitive faculties. Literary works help learners to use their imagination, enhance their empathy for others and lead them to develop their own creativity. They also give students the chance to learn about literary devices that occur in other genres e.g. advertising.

Literature lessons can lead to public displays of student output through posters of student creations e.g. poems, stories or through performances of plays. So for a variety of linguistic, cultural and personal growth reasons, literary texts can be more motivating than the referential ones often used in classrooms. text selection - texts need to be chosen that have relevance and interest to learners. linguistic difficulty - texts need to be appropriate to the level of the students' comprehension.

length - shorter texts may be easier to use within the class time available, but longer texts provide more contextual details, and development of character and plot.

cultural difficulty - texts should not be so culturally dense that outsiders feel excluded from understanding essential meaning.

cultural appropriacy - learners should not be offended by textual context.

Invite learners to step into the shoes of the writer or invite them to modify, extend or add to a text. Literary texts can be studied in their original forms or in simplified or abridged versions. An increasing number of stories in English are written specifically for learners of other languages. The types of literary texts that can be studied inside and outside the ELT classroom include:

- 1 Short stories
- 2 Poems
- 3 Novels
- 4 Plays
- 5 Song Lyrics



Teachers can introduce the topic or theme of the text, pre-teach essential vocabulary items and use prediction tasks to arouse the interest and curiosity of students.

Minimise the extent to which the teacher disturbs students' reading.

Draw attention to stylistic peculiarity.

Help students to appreciate the ways that writers use language to achieve particular effects.
Provide frameworks for creative response.

Used literature:

1. Cambridge university press. 2008

2. <http://galleryteachers.com>

3. <http://researchgate.net>

4. britishcouncil.my

5. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/using-literature-introduction>



МЕКТЕПТЕ ЭСТЕТИКАЛЫҚ ТӘРБИЯНЫ ҚӘЛИПЛЕСИҮ ТИЙКАРЛАРЫ

Абатов Жалғасбай Орынбаевич

ҚМУ «Көркем өнер» кафедрасы үлкен оқытушысы

тел: +998933615383 jalgasabatov4@gmail.com

Сайтбекова Айнура Жумамуратовна

НМПИ «Сүүретлеу өнери хәм әмелий бедеу өнери»

2-басқыш магистранты тел: +99893 7735383

aynursaytbekova.@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Бул тезисте мектеп оқытушыларында эстетикалық тәрбияны “Сүүретлеу өнери ” пәни арқалы қәлиплестириу хәм нәтийжели оқыту зәрүр екенлиги, жәмиеттеги белсенди жасларды қәлиплестириу, оны руұхый өмирге хәм мийнетке таярлау кереклиги ҳаққында жазылған.

ТАЯНЫШ СӨЗЛЕР: эстетика, кәмил инсан, эстетикалық тәрбия, көркем эстетика, эстетикалық қатнас

Эстетика – (грек тилинен алынған сөз болып, сезим, туйғы) – әлемди сезим арқалы қабыл етиуді үйретиуши пән. Эстетика – көркем-өнер, мәдениет хәм тәбияттың субъектив қабыл етилиуин үйренеди. Эстетика – инсан хәм дүнья ортасындағы қәдрият мүнәсибетиниң өзине сай тәреплери хәмде адамлар көркем искерлиги тарауын үйретиуши философиялық пән. «Эстетика» термини немец философы А.Баумгартен (1714-1762) тәрепинен илимге киритилген.[1]

Эстетикалық синонимии сыпатында гөззаллық философиясы, көркем дәретиушилиқ философиясы терминлери қолланылып келинген.

Эстетиканың илимий изертлеу объектлери ишинде көркем-өнер өз алдына орын ийелейди. Эстетиканың педагогика менен байланыслығы эстетик тәрбия мәселелери менен байланыссы. Педагогиканың үлкен тарауларының бири эстетикалық тәрбия менен байланыссы. Бирақ бунда топарларға ажыратылған ҳалда түрли жастағы адамларға белгиленген тәрбия сыпатында алып барылады.

Мысалы: Мектепке шекемги тәрбия, оқытушылар тәрбиясы, дене тәрбиясы хәм т.б.

Оқытушылар инсан ретинде қәлиплесиуине эстетик тәрбияның орны үлкен роль атқарады. Себеби бала жети жастан мектепке барса, ол ең дәслепп жәмиет пенен араласады, өзиниң дүнья көз-қарасларын усы мектепте оқыу дауамында тәлим менен бирге қәлиплестирип, рауажландырып барады. Он сегиз жаста мектепти питкерсе ол шахс сыпатында тәрбияланған эстетикалық тийкарларға ийе болып жетилисиуи керек. Усы мектеп дәуиринде балаға эстетикалық тәрбия сиңдирилсе, оның руұхый дүньясы бай кәмил инсан болып жетилиседи. Эстетикалық тәрбия мектеп дәуиринде балаға хәр түрли пәнлер арқалы үйретилип барылады. Соның ишинде «Сүүретлеу өнери» пәнинде көбирек үйретиледи. Себеби бала сүүретлеу өнери пәнинде дүньяның гөззаллығын, адамлардың турмыс шараятын, елимиздиң кешеги хәм бүгинги көринисин, хәттеки келешегинде көз алдына келтириу арқалы үйренеди.

Сондай-ақ, көркем өнер инсанның руухый дүнья карасларын кенейттириуши, оны шахс сыпатында тарбиялаушы кураллардан бири.[2]

Мектеплерде сүүретлеу өнери пәнин нәтийжели оқыту педагог оқытушылардың алдына еки ўазыйпаны қояды:

1. билим бериу (тәлим)
2. тәрбия бериу (эстетикалық)

Бул еки ўазыйпаны бир-биринен ажыратыуға болмайды.

Эстетикалық тәрбия көркем өнериниң зәрүр екенлигин, гөззаллықсыз көркем өнердиң болыуы мүмкин емеслигин уқтырады.

Мектеп жасындағы балалардың эстетикалық тәрбиясы объектив қарама-қарсылықлар хәм субъектив сәйкес келмеушилиқлерди шешиу жолы менен әмелге асырылады. Тийкарғы қарама-қарсылықлар адамға туўылған ўақтында тәбият тәрепинен берилген гөззаллықты уғынуу уқыпшылықлары хәм мүмкиншилиқлери, өмир ҳақыйқатлығы хәм көркем өнерге эстетикалық қатнасы себепли келип шығады. Соның менен бирге бул уқыпшылықлар хәм



мўмкиншиликлар тек мақсатли бағдарланган, тартиплестирилган, шўлқемлестирилган кўркем-эстетикалық билимлендириў ҳэм тарбиялаў жағдайларинда ғана толық жүзеге шығарылыўы мўмкин.

Эстетикалық тарбия тарбиялаўдың өз алдына бир түри сыпатында қаралмайды ал тарбияның барлық басқа түрлериниң бир тәрәпи сыпатында қаралады. Кўркемлик тарбия эстетикалық тарбияның жоқарғы, арнаўлы формасы сыпатында алға шығады. Жаслардың кўркем-эстетикалық тарбиясы жеке инсан искерлиниң барлық тараўларына; ақыл мийнетине, әдеп-икрамлылық тараўына, мийнет етиў ҳэм т.б. тараўларына да таралады.

Сонлықтан, бир сўз бенен айтқанда барлық инсанлар ушын эстетикалық тарбия ҳэм раўажланыўдың ғалабалығы ҳэм минетлилиги жәмийеттеги белсенди жасларды қәлиплестириўдың, оны руўхый өмирге ҳэм мийнетке таярлаўдың шәрти болып табылады. Эстетикалық тарбия системасын шўкемлестириў, сондай-ақ пўткил тарбия исине комплекс қатнаста болыў принципине тийкарланады.

Пайдаланған әдебиятлар:

1. Абдулла Шер,Баходир Хусанов «Эстетика» Ташкент 2010
2. Е.Умаров,Р.Каримов,М.Мирсайдова,Г.Алиходжаева “Эстетика тийкарлары” Нокис “Қарақалпақстан” 2005



O'QUVCHILARGA HARFLARNING SHAKLINI TO'G'RI YOZISHGA O'RGATISH

Karimova Barnoxon Qilichovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

23-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga harflarni to'g'ri yozishga o'rgatish malakasini shakllantirish va bunda har xil usullardan foydalanish kerakligi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: harf, yozuv, husnixat, husnixat shakllari, yozish malakasi, nusxa ko'chirish, o'yin faoliyati, doska, bo'r.

Boshlang'ich ta'limda husnixat darslarini o'ziga xos yangicha qurilish bilan tashkil qilish to'g'risidagi uslubiy tavsiyalarning kamligi murabbiylarimizni bir oz ranjitadi. Chunki darsda o'quvchilar bilan bir xil qolipda ishlash, ularni doimiy qo'llaniladigan namunaga qarab yozdirish yoki ko'chirtirish, nusxa ko'chirish usulidan foydalanish faqat o'quvchini emas, balki o'qituvchilarimizni ham zeriktiradi.

Yozuv va husnixat darslari uchun ta'limiy o'yinlarni izlab topish o'qituvchidan kasbiy mahoratni talab qiladi. Ta'limiy o'yinlarni dars jarayonida tajribadan o'tkazish mobaynida uning bir qator afzalliklarini bilish mumkin. O'yinlar xilma-xil bo'lib, ularni o'quvchilarning yosh xususiyati hamda yozuv ko'nikmalarini egallash darajasiga ko'ra o'tkazish muhimdir.

Har bir harfning shaklini ongli ravishda egallash, ayniqsa 1-2 sinflarda juda muhimdir. Bu davrda o'quvchilarda harflarni ko'rib, eslab qolish va chiroyli yozish qobiliyatlari tarkib topadi.

Bu davrda quyidagilar:

- har bir harf uchun xarakterli bo'lgan asosiy va yordamchi ulash elementlarini bir - biridan farqlash;

- harflarning bir - biriga nisbatini to'g'ri aniqlash;

- har bir harfning yozilish qoidalariga (qayerdan boshlash, qayerda burish, tugunchaklarni bog'lash va h.k.) amal qilish;

- to'g'ri va no'tog'ri yozilgan harflarning farqini ajratish va ulardagi xatolarni tuzatish ishlari ahamiyatli hisoblanadi.

O'qituvchi doskada shunday elementlar ishtirok etgan kichik i, sh, n harflarini yozib ko'rsatadi. O'quvchilar esa daftarlarida har bir harfni bir qatordan yozib mashq qiladilar. O'qituvchi sinfni aylanib chiqib o'quvchilarning yozuvlarini kuzatib boradi va o'quvchilarning yozuvlarida qanday xatolarga yo'l qo'yanlarini hisobga oladi. Shundan so'ng o'qituvchi bir necha o'quvchi yo'l qo'yan tipik xatolarni doskada yozib ko'rsatadi va bolalardan uning asosiy kamchiligi nimada ekanligini so'raydi.

O'quvchilar o'z xato va kamchiliklarini faqat doskada emas o'z daftarlarida yozishlari muhimdir. Ba'zi bir o'quvchilar o'z xatolarini sezmaydilar, shuning uchun o'quvchilarga o'zaro bir - birlarini daftarlarini tekshirtirish ham yaxshi natija beradi. Ayrim o'quvchilarga esa o'qituvchining o'zi daftarga yozib ko'rsatishi lozim. Bunday o'quvchilar o'qituvchining qo'l harakatiga qarab turib o'z xatolarini tuzatishlari mumkin. Ba'zi hollarda o'qituvchi harflarning shakli haqidagi tasavvurni kengaytirish uchun ruchkani havoda mashq qildirib ko'rsatishi ham mumkin. O'quvchilar chap qo'llarini parta ustiga qo'yib, o'ng qo'llari bilan ruchkani yuqoriga ko'targan holda, o'qituvchining doskadagi harakatini havoda bajaradilar.

O'quvchilarga harflarni o'rgatishni doska orqali ham bajarish mumkin. O'qituvchi harflarni to'g'ri yozishga qiynalayotgan o'quvchiga bo'rni berib doskaga yozdiradi. Agar o'quvchi doskada ham shunday yozishda davom etsa, o'qituvchi o'quvchining qo'lidan ushlab doskada mashq qilishi kerak bo'ladi. Qo'lni toza tutish maqsadida bo'rning yarmigacha qog'oz o'raladi. Bo'rni bosh, o'rta hamda ko'rsatkich barmoq bilan ushlanadi va yozish vaqtida ko'rsatkich barmoq bilan bosib turiladi. Doskada harf va uning elementlarini yozib ko'rsatishdan oldin bo'rning uchini tekislab, yozishga moslab olish zarur.

Husnixat mashg'ulotlarida kichik va yumaloq shakldagi bo'rlardan foydalanishga ruxsat etilmaydi, chunki u tegishli chiziqlarni bermaydi va har xil qalinlikda yozadi.

Bo'rni to'g'ri ushlab qoidalariga amal qilishga o'rgatib borish lozim. Ayrim o'quvchilar bo'rni besh barmoq bilan ushlab noto'g'ri yozadilar. Bunday o'quvchilarni ham qo'lidan ushlab, mashq qildirish zarur.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'quvchilar yozuvchining sifati ko'p jihatdan yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarga boliqdir. Bizlar pedagog sifatida har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanishimiz, ularning qiziqish va istaklarini e'tiborga olgan holda ishlashimiz lozim, ana shundagina ularda to'g'ri yozish malakasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Matchonov S ,G'ulomova X Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tshkil etish.Toshkent “Yangi yo'l”nashriyoti 2008
2. G'afforova T,Nurullayeva Sh.Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.Toshkent.”Ilm ziyo”nashriyoti 2004
3. Boshlang'ich sinflarning darsliklari.



INFORMATIKA FANINING TARIXI VA UNDA QO‘LLANADIGAN INTERFAOL USULLAR


Kazakova Sveta Rashitovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
informatika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada informatika fanida qo‘llanadigan usul va o‘yinlar yoritilgan bo‘lib, informatika fani o‘qituvchilari foydalanishi uchun tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: informatika, axborot, interfaol usullar.

Informatika fani bugungi kunda inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llanilayotgan fanlardan biri bo‘lib, u XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga keldi.


Informatika fani inson faoliyatining turli holatlarida axborotlarni izlash, to‘plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi fandır. Informatika fan sifatida informatsion jarayon (axborotlashgan jarayon) larning qonuniyatlarini o‘rganadi. Informatsion jarayon keng tushuncha bo‘lib, ma’lumotlarni jamlash, uzatish, saqlash, to‘plash, qidirish va iste’molchiga berishgacha bo‘lgan jarayonlarni o‘zida aks ettiradi.



Informatika atamasi XX asrning 60-yillarida ishlatila boshlagan bo‘lsada, uning alohida fan sifatida ajralishi 40-50 yillarga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki bu davrda tarixda birinchi EHM yaratilgan edi. (1942 yil, AQShda ENIAK deb nomlangan elektron hisoblash mashinasi). Birinchi EHM yaratilgandan so‘ng Informatika fani yanada rivojlanib hozirgi taraqqiyot darajasiga yetdi. Informatika kompyuter texnikasining rivojlanishi tufayli yuzaga keldi, unga asoslanadi, kompyutersiz mavjud bo‘la olmaydi.

Ushbu fanni o‘qitishda quyidagi usul va o‘yinlardan foydalanish mumkin.

“Gulning ochilishi” usuli. Bunda gulning ochilishini kuzatamiz. Avval gulimiz bir bargini, so‘ng ikkinchi bargini yozadi ... va nihoyat gul ochiladi. Ochilish jarayonida gulimiz ikkilik sanoq sistemasi sonlarini ko‘rsatadi. Agar gulning oxirigacha ochilishini kuzatsak, u bizga necha kunga unib chiqqani va ochilganini ko‘rsatadi.



“Taqdimot” usuli. Bu usulda topshiriq va vazifalar taqdimot orqali bajariladi.



Topshiriq: Har biringiz o'z elektron pochtagizga kirasiz va O'zbekiston respublikasi va unga qo'shni davlatlar, ularning poytaxtlari, aholisi va sanoati haqida ma'lumot tayyorlab, mana shu elektron pochtaga jo'natasiz.

4

“Jadval bilan ishlash” usuli. Bunda quyidagilarni bilish lozim:

Katakchaga ma'lumotlar kiritish	Katakchadagi ma'lumotlarni tahrir qilish	Katakchadagi ma'lumotlarni o'chirish
Katakcha belgilanadi. Matn, son yoki formula kiritiladi. Kiritish (Enter) Klavishi bosiladi.	Katakcha belgilanadi. F2 (tahrir qilish holatiga o'tish) klavishi bosiladi. Tahrir qilish bajariladi. Kiritish klavishi bosiladi.	Katakcha yoki katakchalar bloki belgilanadi. O'chirish (Delete) klavishi bosiladi.

Boshqa fanlar singari informatika darslarida ham o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.



Xullas, har bir fanda bo’lgani kabi informatika darslari ham zamon bilan hamnafas holda tashkil etilishi o’quvchilarning qiziqishini oshiradi va ushbu fanni o’zlashtirishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.U.Yu.Yuldashev, R.R.Boqiev, F.M.Zokirova. “Informatika”. Toshkent, 2002 y. 2.M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov “Axborot texnologiyalari”. Toshkent, Noshir, 2009.



O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Raximova Maxbubaxon Pozilovna

Andijon viloyati Andijon shahar

25-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998 91 600 71 04

Anotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, zamonaviy texnologiyaning bir qancha usullari, zamonaviy texnologiyalarning dars jarayonidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ish faoliyatida mazkur uslublarni qo'llash borasidagi bir qancha munozarali qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiya, innovatsiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, bo'linish metodlari.

Ta'limda asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Buning uchun har bir til va adabiyot o'qituvchisi o'z ixtisosligini puxta bilishi, ilg'or pedagogik texnologiya hamda zamonaviy o'quv texnik vositalaridan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim samarasi ham, o'qitish darajasi ham yuqori bo'ladi. Ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning quyidagi usullaridan keng foydalanish mumkin:

1. *Musobaqa darslari.* Musobaqa darslarida o'quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy mushohada yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

2. *Bahs-munozara darslari.* Musobaqa darslarida yechib ulgurilmagan, biror to'xtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, to'g'ri, aniq va muxtasar xulosalar chiqarish bilan farqlanadi. Bahs-munozara o'quvchilardan xushyorlikni talab etadi, mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida o'ylashga va o'z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o'rgatadi. O'zaro tortishuv va bahs oqibatida eng to'g'ri va ma'qul yechimga kelinadi. O'quvchi bahs-munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, o'z "MEN" inini anglab yetadi, o'z dunyoqarashi, ilmiy-ijodiy tafakkuri ko'lamini, haq yoki nohaq ekanligi to'g'risida o'zi mustaqil xulosa chiqaradi. O'z fikrini himoya qilishi uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga o'rganadi. Interfaol darslarni o'tishning esa quyidagi usullarini misol tariqasida keltirish mumkin: aqliy hujum, juftliklarda ishlash, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar, muammolar va yechimlar daraxti, munozara, ishchan bolarilar. Tugallanmagan gaplar va boshqalar.

Interfaol metodlarni qo'llashda o'quvchilarni guruhlariga bo'lish muhimdir. Shu tufayli guruhlariga bo'linish usullaridan quyidagilarni amalga oshirish mumkin: maqsadli, tasodifiy. O'quvchilar shu tariqa guruhlariga ajratilgach ona tili ta'limida qo'llash mumkin bo'lgan quyidagi metodlar asosida ish olib borish mumkin. Quyida mana shunday metodlardan bir qanchasini tavsiya etish mumkin: **1."Ishchan bolarilar" metodi.** Mazkur metoddan ixtiyoriy matn ustida ishlashda foydalanish mumkin. Mazkur metod quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Qatnashchilar guruhlariga bo'linadilar.
2. Har bir guruhda bittadan ishchan bolari tanlanadi.
3. Guruhlarga topshiriqlar berildi.
4. Guruhlar ishlayotganda ishchan bolarilar boshqa guruhlariga borib, bol, ya'ni boshqa guruh topshiriqlari javobini eshitib, o'rganib keladilar va o'z guruhlariga ma'lumot bollarini yetkazadilar.
5. O'qituvchi barcha guruh mavzulari bo'yicha savol tashlaydi.
6. Guruh javobiga qarab ishchan bolari baholanadi, guruh rag'bat kartochkasi bilan rag'batlantiriladi.

2."Kim ko'proq" metodi. Bu o'yin mashq texnologiyasida o'quvchilar 2 yoki 3 guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga bir yoki ikki asosli 5 tadan yoki 10 tadan so'z (bu so'zlarning



bosh harfi o'zgarsa boshqa ma'no beruvchi so'z hosil bo'lishi kerak) o'ylab topish taklif etiladi. Eng birinchi bo'lib shartni to'g'ri bajargan guruh yoki o'quvchi baholanadi.

3. "Mohir suhandon" metodi. O'quvchilar 3 yoki 4 guruhga bo'linadilar. Oldindan tayyorlangan mavzular nomi yozilgan kartochkalarni tanlab oladilar. Guruhlarga mavzuga oid eng ma'noli va ko'p so'z topish topshiriladi. Topilgan so'zlar ishtirokida kichkina monolog yoki matn tuzish vazifasi beriladi. Matn mazmuniga qarab baholanadi. Bugungi kunda AKTlardan foydalangan holda dars o'tish har bir pedagogning oldiga qo'yilgan yetakchi talablardan biriga aylanib qoldi. O'qituvchining AKTni yaxshi bilishi, darslarida ulardan unumli foydalana bilishi ta'lim sifatini yanada yuqori samaralarga erishishiga kafolat beradi. Ona tili ta'limida kompyuterlardan foydalanish o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, dars sifatini va samaradorligini oshiradi, o'qituvchining vaqtini tejaydi. O'quvchining mustaqil bilim egallashiga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Ta'limda qanday usul va metodlardan foydalanmaylik, bizning asosiy maqsadimiz o'quvchiga davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni to'raligicha singdirishdan iboratdir. Bugungi kun ta'limida darslarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, darslarda AKT va multimediyalardan foydalangan holatda dars samaradorligiga erishish davr pedagogining asosiy va bosh maqsadlaridan biriga aylanib qoldi. Shunday ekan, ta'lim jarayonini to'g'ri va maqsadli tashkil etish, unda zamonaviy ta'lim usullaridan keng foydalanish, yangi usul va metodlar ishlab chiqish asosiy vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent.: Tafakkur. 2012.
2. R.Ishmuhammedov. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent. 2008.
3. R.Ishmuhammedov. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedtexnologiyalarni qo'llash uslublari. – Toshkent. 2008.



“SPORT MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARGA MILLIY VA UMUMINSONIY FAZILATLARNI SINGDIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI (KURASH MISOLIDA)”

Ro‘ziqulov Ravshan Raximovich
Ashurov Raxmatillo Mustafayevich
Isroilova Mohigul Bahodir qizi
Samarqand Davlat Chet tillar instituti

Anatatsiya: Mashg‘ulot jarayonida umuminsoniy fazilatlarni singdirib borish yoshlarni milliy fazilatlar va urf odatlarimiz ruhida tarbiyalashda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Kalit so‘zlar: Milliy va umuminsoniy, kurash, gumanizm, sport, pedagogika, fazilatlar.

Qadimiy fazilatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan milliy sportimiz bo‘lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu fazilatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta‘minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an‘analari va fazilatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o‘zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahonarenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020 yil 4 noyabr PQ-4881-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorda “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash nazarda tutilgan.

Bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan globallashtirish jarayoni shiddat bilan kirib kelayotgan bir davrda, jahon xalqlari orasida o‘zining milliy urf-odati, qadriyati va an‘analarini saqlab qolish, ulardan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanish muammosi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bundan albatta O‘zbekiston ham mustasno emas. Yoshlarni milliy va umuminsoniy fazilatlar asosida tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport asosiy vositalardan biri sanaladi. Ayniqsa tarixiy taraqqiyoti uzoq o‘tmishga borib taqaluvchi milliy sport turlari (kurash, turon yakka kurashi, uloq ko‘pkari va boshq.) o‘z mazmunida milliy xususiyatlarni to‘la aks ettirganligi bilan ahamiyatli hisoblanib, ulardan tarbiya jarayonida unumli foydalanish o‘ta ahamiyatli pedagogik muammo sanaladi. O‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruxida rivojlantirish, jismonan sog‘lom, ruxan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy xayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik isloxlarni chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy faolligini oshirish asosida takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi xam muxim o‘rin egallaydi.

Kurash sporti orqali o‘quvchilarga milliy fazilatlarni singdirishning yo‘llarini ishlab chiqish, ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etishda hamda amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

-Kurash jarayonida milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakillantirishga oid tarixiy va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va taxlil qilish;

Ilg‘or tajribalarni o‘rganish;

Milliy va umuminsoniy fazilatlarni singdirishga oid eksperiment mashg‘ulotlar o‘tkazish ;

O‘quvchilarda milliy va umuminsoniy fazilatlarni singdirishga oid amaliy tavsiyalar berish. Ishlab chiqilgan tavsiyalar samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov o‘tkazish, olingan natijalarni matematik tahlil qilishdan iborat.

O‘quvchilarga milliy va umuminsoniy fazilatlarni singdirishning kurash sport turidan foydalanish usullarini ishlab chiqishda ilg‘or zamonaviy tajribalar, milliy xususiyatlar inobatga



olinadi;

Kurash sport turini o'qitish jarayonida o'quvchilarga milliy va umuminsoniy fazilatlarini singdirish yo'llari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

Kurash sport turini o'qitishga doir qo'yiladigan pedagogik talablar va mezonlarni ilmiy asoslash;

Kurash sport turi orqali o'quvchilarga milliy va umuminsoniy fazilatlarini singdirish samarali ekanligi tajriba sinov ishlari orqali tasdiqlash;

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari o'quv jarayonida kurash sport turini o'qitish samaradorligini oshirish taminlanadi.

1. Kurash sportini o'qitish jarayonida o'quvchilar ongiga milliy fazilatlarini singdirishning metodlarini, usullarini ishlab chiqib amaliyotga joriy etilsa;

2. O'quvchilarning kurashga doir bilim, ko'nikma, malakalarini egallashlari orqali ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish samaradorligiga erishish;

3. O'quvchilarning kurash orqali millatparvarlik, Vatanparvarlik va insonparvarlik kabi umuminsoniy hislatlari shakllanadi;

4. Bo'lajak o'qituvchi o'quvchilarda milliy va umuminsoniy fazilatlarini singdirish yo'li bilan qurollanadi.

Qadiriylarga asoslangan ta'lim tarbiyada o'sib kelayotgan yosh avlodda yangicha dunyoqarash, o'zlikni anglash, tarixni bilish, ona tilmizga hurmat, o'z vataniga sadoqat, fazilat va an'analarga muhabbat kabi insoniy xislatlar tarbiyalanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning yoshlarga qarata "Biz hech kimdan kam emasmiz, kam ham bo'lmaymiz", degan fikrlari ham buni tasdiqlaydi. Ya'ni o'zbek xalqi o'z milliy fazilatlarini saqlagan va rivojlantirgan holda umuminsoniy fazilatlar rivojiga ham o'z hissasini qo'shadi.

Shu bilan birga boshqa millatlar va xalqlarning qadiriylarini ham hurmat qiladi. Milliy fazilatlarini ta'lim-tarbiyaga joriy etishda Oliy ta'lim alohida o'rin tutadi. Oliy ta'limda tahsil oladigan o'quvchilarga milliy fazilatlarini turli vositalar va usullar orqali singdirish mumkin. Ana shunday vositalardan biri bu sport hisoblanadi. Sababi sport insonni sog'lomlashtiradi. Xalqimiz iborasi bilan aytgach: "Sog' tanda sog'lom aql". Bundan tashqari sport bilan shug'ullanish orqali yoshlarda mardlik, jasurlik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi xislatlar ham shakllanib boradi. SHuning uchun ham xalqimizning tarixi bilan tengdosh bo'lgan ko'plab milliy o'yinlar va sport turlari bor. Ana shunday sport turlaridan biri – o'zbek kurashi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi. 03.06.2017 y. № PQ-3031. "Xalq so'zi", 2017 yil 6 iyun.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qarori PQ-4881-sonli 2020 yil 4 noyabr. Toshkent sh.

3. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi, SHarq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, T., 1999.

4. Abdiyev.A.N Yakkakurash sport turlarida ixtisoslashuvchi o'quvchilarda murabbiyning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari. Pedagogika.Fanlari. Doktor T. 2004 317 bet.

5. Atoev.A.Q Teoriya i praktika fizicheskogo vospitaniya v seme Avtoref. Disser. Doktorlik. Pedagogik. Nauk .Kiev 84



BOSHLANGICH SINFLARDA FIKRIY HUJUM METODIDAN FOYDALANISH

Masharipova Niyazdjan Xaitbayevna

Xorazm viloyati Urganch shahar

11-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf O'IBDO'

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda Fikriy hujum metodi fanlar bilan bog'liqligi, o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Fikriy hujum, metod, boshlang'ich matematika, fikrlash.

Fikriy hujum metodi: Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi.

“Yalpiy fikriy hujum” metodi: Ushbu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar o'quvchilardan iborat sinflarda qo'llash mumkin.

Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axdorot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi.

Mashg'ulot jarayonida guruhlar a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi: Metodning mohiyati quyidagidan iborat:

- jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

- o'quvchilarda ma'lum jamoa tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iborat.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodidan foydalanishga asoslangan mashg'ulot quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1-bosqich: Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan o'quvchilarni o'zida birlashtirilgan hamda son jihatdan teng bo'lgan kichik guruhlarini shakllantirish;

2-bosqich: Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash;

3-bosqich: Guruhlar tomonidan muayyan g'oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlar hal etilishi);

4-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish;

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

- o'quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;

- vaqtni iqtisod qilish;

- har bir o'quvchini faollikka undash;

- ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”

2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun



YOSHLAR O'RTASIDA DEVIANT XULQ-ATVORNING KELIB CHIQISH SABABLARI

O'rinov Furqat Jamol o'g'li

BDU psixologiya fakulteti magistri
orinovfurqat355@gmail.com +998916497242

Annatsiya: Jamiyatning hozirgi holati: unda sodir bo'layotgan har bir hodisani chuqur anglashni taqozo etadi. Yoshlar hayotda sodir bo'layotgan voqealarning ma'nosini yo'qotadilar va ularga individuallikni saqlash va sog'lom turmush tarzini shakllantirish imkonini beradigan zarur hayotiy ko'nikmalarga ega emaslar. Har bir inson o'z kelajagi, oilasi, millati, yurti kelajagi uchun javobgardir. Shu sababdan, hozirgi paytda yoshlar tarbiyasiga e'tiborli bo'lish va ular bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish kerak. Lekin yoshlar o'rtasida "Deviant-xulq atvor" shakllanib bormoqda. Bu esa ham pedagog, ham psixologlar uchun ancha qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Ushbu maqolada aynan yoshlar o'rtasida "Deviant- xulq atvor"ning kelib chiqish sabablari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yoshga doir xususiyat, o'smirlik, sotsiologik tadqiqot, ota-ona munosabatlari, maktab yoshi bolalari

Yoshdagilarga xususiyat shundaki, tashqi jihatdan da'volariga ko'ra bu katta yosh, ichki xususiyatlari va imkoniyatlariga ko'ra esa, ular hali bola. Yoshlar erkalashga, o'ziga e'tibor berilishiga moyilligi, o'yin qaroqligi mana shu bilan bog'liq. Shu bilan birga o'smirlarda o'zining katta yoshli bo'layotganligini his etish bilan birgalikda ong, o'z qadriyatini his etish, jinsiy mansubligini anglash uyg'onadi va faol shakllanadi. O'smirlik yoshi o'zida har xil ruhiy jarohat yetkazadigan omillar ta'siriga tutish xavfi yuqori darajada bo'lgan shart-sharoitlar jamini ham ifodalaydi. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlar buyicha ota-onalar o'rtasidagi urush-janjallar, o'smirning nuqtai- nazariga ko'ra ularda o'smirni va atrofdagilarni kamsitadigan nuqsonlarning mavjudligi, o'smirlarga nisbatan haqoratlovchi munosabat bo'lish, unga ishonmaslik yoki uni hurmat qilmaslik mana shunday kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillardandir. Bularning barchasi bolalar va o'smirlarning ijtimoiylashuvi jarayonini qiyinlashtiradi va mana shu asosda ularning xulq-atvorida har xil chetga chiqishlarni keltirib chiqaradi.

Deviant harakatlarning namoyon bo'lishiga yordam beradigan turtki nima ekanligini tushunish kerak. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlardagi muammolar deviant xatti-harakatlarning sababiga aylanadi. Shunga o'xshash belgilar to'liq bo'lmagan oilalarda tarbiyalangan bolalarga xosdir. Ba'zida bitta ota-onaning g'amxo'rliqi va nazorati etarli emas. Hamma oilalar ham o'z xohishlaridan kam emas. Ota-onalardan birining o'limi, ajralishlar - kattalar uchun bolalarning ruhiy holati haqida o'ylash uchun imkoniyat. Har xil muammolar deviant xatti-harakatlarning sababiga aylanadi.

Afsuski, ayrim oilalarda o'z otasi yoki onasining mehr-oqibatidan bebahra o'sayotgan bolalar ham yo'q emas. Ba'zi oilalarda esa ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy psixologik iqlimda emasligi achinarli holdir, albatta. Aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyaga chaqirishda g'amxo'rlik, mehrbonlik, sabr-toqat, mehr kabi xislatlar bilan yondashish o'rniga, kuch bilan, ayniqsa jismoniy jazo usuli bilan ta'sir o'tkazadilar. O'z navbatida bu kabi xatti- harakatlar bolalarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga zamin bo'ladi. Bugungi kunda deviant xarakterli bolalar maktab o'quvchilari o'rtasida ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab bo'ldi. Maktab bolalarida deviant xatti-harakatlarning vujudga kelishi murakkab va ko'pqirrali jarayon bo'lib, unga ko'pgina omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Deviant xatti-harakatlar oilada, tengdoshlar guruhida, oilaviy axborot vositasi ta'sirida shakllanishi aniqlangan.

Yosh avlod o'rtasida deviant xulq-atvorning rivojlanishi va jamiyatdagi jinoyatchilik hodisalarining o'sishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Noqonuniy xatti-harakatlar qilish istagi bolalar va o'spirinlarning deviant xatti-harakatlari rivojlanishi bilan ortib bormoqda. Shuning uchun profilaktika ishlari barcha ta'lim muassasalarida hamma joyda joriy etilishi kerak. Ularning maqsadi o'spirinlarni har bir harakat javobgar bo'lishi kerakligini o'rgatishdir. Bunda asosiy maqsad negativ hodisalarni aniqlash, bartaraf etish va neytrallashtirishdir. Bu yondashuning mohiyati davlat, jamiyat, muayyan ijtimoiy pedagogik muassasa, ijtimoiy pedagog tomonidan



deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy, huquqiy va tarbiyaviy chora tadbirlarni o'tkazishdan iborat.

Demak, yosh avlod mamlakatimiz kelajagi bo'lib, uni sog'lom, barkamol insonlar etib tarbiyalash bizning burchimizdir. Lekin bugun aytishimiz mumkinki, biz kattalar farzandlarimizga eng yaxshi namunani ko'rsatmayapmiz, shu orqali farzandlarimizni ham shunday qilishga, bizdan o'rnak olishga undayapmiz. Shuning uchun, atrofdagilarni o'zgartirishdan oldin, siz o'zingizni, sodir bo'layotgan narsalarga ichki munosabatingizni o'zgartirishingiz kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. V. Karimova, O. Hayitov. Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi. - T.: 2007
2. V. Karimova. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot. T.: 2009.
3. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi.
4. Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi uning oldini olish muammolari. -Qonun himoyasida T. Ne1. 2001y.
5. Giddens E. Sotsiologiya. Toshkent - Sharq, 2002.



BOLA TARBIYASIDA OILANING O‘RNI

Qilichova Marhabo Xudoyqulovna

JDPI “Maktabgacha ta’lim” fakulteti,

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

Asadova Marjona Ahmad qizi

JDPI “Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada oilada farzand tarbiyasida ota- onalarning o‘rni haqida fikr yuritilgan bo‘lib, tarbiya masalasi har qanday davrda va har qanday jamiyatda o‘z ahamiyatini yoqotmasligi bilan dolzarb ekanligiga urg‘u berilgan. Shuningdek oilada farzand tarbiyasi haqidagi Sharq allomalari va donishmandlar qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati o‘rganilgan.

KALIT SO‘ZLAR: bola tarbiyasi, ota-ona hamkorligi, ta’lim, Sharq va G‘arb mutaffakkirlari, donishmand, xulq-atvor, odob-axloq namunalari, oilaviy muhit.

***Bolalarning murg‘ak qalbiga hech bir narsa ibratdek
kuchli ta’sir etmaydi va barcha ibratlar ichida ota-ona
ibratidan kuchliroq va mustahkamroq o‘rin oladigan ibrat yo‘q.
N.I.Novikov***

Barkamol avlod tarbiyasini tashkil etish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi, millat ma’naviyatining uzviy bir qismi bo‘lib kelgan. Bu g‘oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari boshlagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat sohasida ulkan yutuqlarga erishishga undagan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish haqida qayg‘urmagan xalqning, millatning kelajagi yo‘q. Shu bois, mamlakatimizda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyati tobora o‘sib borayotganligi ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashni muhim masala sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda.

“Shuni unutmaslik kerakki”, - deydi birinchi prezidentimiz I.Karimov, - “kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq”. Zero ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi yoshlarda bilim egallash bilan birga vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, demokratik va umuminsoniylik kabi qadriyatlarni shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta’sir ko‘rsatishi tabiiy holdir. Oila a’zolarining ma’naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Oila farzandning dastlabki tarbiya maktabidir. Shuni nazarda tutganda oilaning ikki sarkon — ota bilan onaning ma’naviy-ruhiy odobi, o‘zlarining namunali xulq-atvorlari, yaxshi tarbiya ko‘rganliklari, bolalarga tarbiya berishdagi tajriba va mahoratlari, qunt-sabotlari, sezgirlik va talabchanliklari bolalarni yoshlikdanoq boadab bo‘lib o‘sishida aks ettiruvchi ko‘zgudek muhim o‘rin tutadi.

Har bir oilada bolaga tarbiya berishning o‘ziga xos va mos bir qator muhim qonun-qoidalari borki, unga qat’iy amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, bu qonun-qoidalarni nisbiy ravishda umumiy deyish mumkin, chunki har bir bola — bir olam, ular har birining o‘ziga xos shaxsiyati, ahamiyati, ruhiyati va xulq-atvori bor, shu bois shunga qarab muomala qilish darkor. Shuning uchun tarbiyada ota-onaning mas’uliyati, mahorati, ziyrakligi, obro‘-e’tibori muhimdir.

Har bir ota-ona bola tarbiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishiga e’tibor berib, bu kabi nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarni o‘zlashtirib, unga amal qilsa, ayni muddao bo‘ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g‘oyat nozik va murakkab masala bo‘lib, bu ota-onadan katta odob bilimini, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi. Bola tarbiyasi g‘oyat nozik, bu narsa vaqttni qo‘ldan boy bermay, doimo, muntazam shug‘ullanishni talab etadi.

Qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun bir necha xususiyatlarni namoyon qiladi. O‘zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag‘rikenglik, mehrdaryolik, o‘ta fidoyilik xalqimizga xos xususiyatlardir. Shu boisdan ota-onalarimiz farzandlarning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo‘yicha kasb-hunar egallashlari, axloq-odob qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal



qilishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada bolani to'g'ri tarbiyalash — mustahkam poydevorli jamiyat barpo etilishining garovidir.

Oilada farzand tarbiyasi u tug'ilmasdan boshlanmog'i zarur. Er-xotin, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi sog'lom ma'naviy muhit, xushmuomalalik, xursandchilik bolaning bexavotir, sog'lom tug'ilishiga garov bo'ladi. Shuning uchun donishmandlarning bolani u tug'ilmasdan oldin tarbiyalash xususidagi o'gitlariga amal qilmoq zarur. Bir kishi yangi tug'ilgan chaqaloqni donishmand kishi oldiga olib kelib: «Taqsir, bolamga qachondan tarbiya bera boshlay?» -debdi. «Bolang dunyoga kelganiga necha kun bo'ldi?» — debdi donishmand. «Ikki oy, taqsir», debdi ota. «Attang, siz ancha kech qolibsiz, tarbiyani onasining qornidaligidan boshlashingiz kerak edi»,— debdi donishmand.

Demak, yuqorida keltirilgan fikrdan xulosa qiladigan bo'lsak bola tarbiyasiga ancha oldin, ya'ni bola tug'ilmasdan oldin tarbiya masalasiga e'tibor qaratish lozim ekan. Oilada bolani hech vaqt uyaltirmaslik va izza qilmaslik lozim. Har qanday inson boshqalar oldida uyalishni, uyalganlikni og'ir esdan chiqaradi. Ko'pchilik orasida izza bo'lganligini bir umr esdan chiqarmasligi mumkin. Shunday ekan, oilangizda ruhiy muhit sog'lom bo'lsin desangiz, bolangizning hozirgina qilgan noo'rin, xato, adashilgan, anglashilmovchilik yuzasidan, uning tajribasizligidan kelib chiqqan hatti-harakatini qoralab, uni jazolab o'tirmang. Ayniqsa voqeani yuziga solib, izza qilmang. Shu borada agar bu voqeadan uning biror tanishi voqif bo'lishi xavfi bo'lsa, kechinma yanada kuchliroq tus olishi mumkin. Bolani xato bo'lishi mumkin bo'lgan ishlardan ogohlantirib, tarbiyalab borsangiz, uning oiladagi o'rnini kamsitmagan bo'lasiz.

Masalan, piyola bolangizning qo'lidan tushib ketib singanda emas, bu piyola sinib bo'ldi, undan ko'p vaqt ilgari ish buyurganingizda «ehtiyot bo'l, sinib qolmasin» degan, tarbiyaviy so'zlardan boshlang. U kichkina, atrofidagi dunyo qanday ishlashini hali bilmaydi, hamma narsa unga qiziq. U hamma narsaga teginishni, sinab ko'rishni hohlaydi. Unga buni amalga oshirish uchun imkoniyat bering. Uning savollariga sabr bilan javob bering. Shuni ham yodda tutingki, har bir inson muhabbat va mehrga, avvalambor bolaga muhtoj. Payg'ambarimiz Rasululloh sallallohu alayhi va sallam “Hech bir ota — ona farzandlariga go'zal tarbiya va yaxshi odobdan ortiq bir tuhfa in'om etolmaydi” deb, marhamat qilganlar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, farzand tarbiyalashdan avval o'zimizni tarbiyalashimiz zarur. Negaki farzandlarimiz bu bizning oynadagi aksimizdir. Bola tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati, mahorati, ziyrakligi, obro'-e'tibori muhimdir. Shuningdek, bolalarda chiroyli xulq-atvor ko'nikmasini, malakalarini tarbiyalashning o'ziga xos ko'pgina usul va vositalari borki, ota-onalar kundalik hayotda ularni yaxshi bilishi, bevosita har qaysisidan o'z o'rnida, me'yorida, maqsadga muvofiq foydalanishi g'oyat zarur. Bular jumlasiga ibrat — namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, yaxshilikka odatlantirish, o'zni kelganda nasihat qilish, qat'iy tanbeh berish, bola bilan vaqtincha gaplashmaslik, ularga nisbatan munosabatni o'zgartirish, ishortirish, jamoatchilikning ta'siri, rag'bailantirish va qoralash kabilar kiradi.

Har bir ota-onalar bola tarbiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishiga e'tibor berib, tarbiya borasidagi diniy, nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarini o'zlashtirib, unga amal qilsa, ayni muddao bo'ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala bo'lib, bu ota-onadan katta odob bilimini, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. T. “O'zbekiston”, 2021.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. “Ma'naviyat”, 2008.
3. Sodiqova Sh. Maktabgacha Pedagogika. Toshkent, 2003.
4. Qilichova M. Kh. Little features of foreign experience in education of children in preschool educational institutions. Current research journal of pedagogics/ 2(10), 2021. USA. Pp 241-246.
5. Qilichova M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishining o'ziga xosliklari. Maktabgacha ta'lim elektron jurnali. 2021. №3.
6. Qilichova M. X. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg'or tajribalari. Academic research in educational sciences, 2(11), 2021, Pp 739-740.



ZAMONAVIY TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI

Qilichova Marhabo Xudoyqulovna

JDPI “Maktabgacha ta’lim” fakulteti,

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o’qituvchisi

To’lanova Feruzaxon Turg’unboy qizi

JDPI “Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada zamonaviy tarbiyachining pedagogik mahorati haqida fikr yuritilgan bo’lib, unda zamonaviy tarbiyachining o’ziga xos bo’lgan fazilatlarini, bilim, ko’nikma va malakalari bayon etilgan. Shuningdek maqolada bugungi kunda zamonaviy tarbiyachiga qo’yilayotgan talablarga alohida to’xtalib o’tilgan.

KALIT SO‘ZLAR: pedagogik mahorat, bilim, ko’nikma, malaka, zamonaviy tarbiyachining kasbiy kompetentlari, hozirgi jamiyatda murabbiy tarbiyachining pedagogik mahorati, muomala madaniyati, notiqlik san’ati, jozibadorlik, tashabbuskorlik.

Hozirgi kunda “pedagogik mahorat” da erishilgan eng so’nggi yutuqlar nuqtai-nazaridan yondashganda, o’qituvchilik kasbi - hamisha navqiron kasb sifatida e’zozlanib kelinmoqda. Shuning uchun ushbu kasbiy faoliyatning ilmiy - nazariy va amaliy-metodik asoslari yildan yilga o’z xususiyatlarini boyitib bormoqda. Darslarda “pedagogik mahorat”ning nazariy va metodologik asoslariga, mazmuni, funksiyasi, tarkibiy qismlariga, ularning vazifalariga jiddiy e’tibor berilgan. Shu bilan birga, o’quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarishda o’qituvchilar va tarbiyachilarning o’z kasbiga milliy, ma’naviy jihatdan munosabati qanday bo’lishi kerakligi yoritilgan.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarga hamda pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalarga kasbiy pedagogik mahoratni egallash hamda uni uzluksiz takomillashtirib borish to’g’risida har tomonlama mukammal tavsiyalar berish lozim.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo’lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o’qitish shakllarida foydalaniladigan o’qitish qonuniyatlarini, prinsiplarini ijodiy qo’llashda, ilmiy-bilimlarga doir g’oyalar, nazariyalar, qonuniyatlari amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O’z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa’diy Sher ziyor, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Husaj Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o’qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o’qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo’lgan sifatlar xususidagi qimmatli ma’lumotlari o’z asarlarida qizg’in bahs qilishgan. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo’lmagan pedagog ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ham ega bo’la olmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo’lgan pedagog bolani tilini tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo’lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to’g’ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo’lgan ziddiyatlarni o’z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg’orligi, jamiyat taraqqiyotidagi yutuqlarni yosh avlod ongiga singdirilayotgan ezgu g’oyalarni hayot bilan bog’lay olishi lozim.

Hozirgi kunda darsliklar, kommunikatsion axborot texnologiyalari qanchalik rivojlangan bo’lmasin, pedagogik amaliyot, ta’lim - tarbiya ishlarining muvaffaqiyati baribir pedagogning bilimiga, uning kasbiy mahoratiga bog’liq. Shu nuqtai – nazardan hozirgi kunda pedagoglardan zamonaviy bilim berishlari talab qilinmoqda. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, pedagogning o’zi ana shunday bilimga ega bo’lishi kerak.

Darhaqiqat, har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy - nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo’llash uchun ko’nikma va malakalarini rivojlantirish albatta oson ish emas. O’qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma’lumotlarni egallashga layoqatli, bilish faolligi va aqliy mehnat madaniyatini o’zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish muhim vazifadir. Kasbiy pedagogik ta’lim yo’nalishida pedagogik mahoratni yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga



e'tiborni kuchaytirish hozirgi kunning dolzarb muammosi sifatida tan olinmoqda.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi, hozirgi kundagi murabbiy tarbiyachi pedagogik mahoratga ega bo'lishi uchun qanday talablarga javob berishi lozim. Tarbiyachining shaxsiy xislatlariga ularning bolalar jamoasidagi vazifalari, ularning ish faoliyatidagi fidoyiligi, bolasevarligi, bolaning istiqboliga qiziqishlari bilan aniqlanadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi murabbiy va tarbiyachilar quyidagi psixo-fizologik xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak:

- mustahkam sog'liq, sog'lom fikrlilik, jismoniy baquvvatlilik, irodalilik, chidamlilik, ishchanlik, g'ayratlilik, bayroqdor bo'lishga ishtiyoqlilik bo'lishi kerak;
- ular konstruktiv, analitik va ijodiy fikrlashlarga ham qodir bo'lishlari kerak;
- nutq madaniyati, muomala madaniyati hamda kommunikativlik.

Xullas murabbiy tarbiyachilar o'zlarining kasbiy mahoratiga qo'yilgan talablarga amal qilsa, birinchidan, bolalar bilan ishlashda ularning tarbiyasi va rivojlanishiga qayg'uradi, hamda ularga ishonish orqali bolalarning faollik va ijodiy qirralarini namoyon qila oladi. Bunda bolalarni tushuna olish qobiliyati ularning pedagogik mahoratiga o'ta muhim sifatiy ko'rsatkich sifatida namouon bo'ladi. Ikkinchidan, ular tashkilotchilik faoliyati orqali bolalarda mashg'ulotga qiziqishni, jamoaviy ishlarni tashkil etishda bolalarga ijobiy-jamoaviy ta'sir etishni, ularda havaskorlik va tashabbuskorlik hamda javobgarlik hislarini shakllantira oladi. Bunday holatda ularning o'zidagi bor kuchni boshqalarga o'tkaza olishi va o'z bilim, ko'nikma, malakalarini to'liq ishga solib bolalarga ta'sir o'tkazishi o'ta muhim sanaladi. Ularning bolalar jamoasida ishlashiga bo'lgan moyilligi, qiziqishi, layoqati va fidoyiligi tufayligina bolalar jamoasining ma'naviy jihatdan bilimliligi ta'minlanadi, bolalardagi ijodiy faoliyat va tashabbuskorlikka ijobiy turtki bo'ladi. Uchinchidan, tarbiyachi pedagoglarning bolalar bilan ishlashdagi kommunikativligi va bolalarga bo'lgan samimiyligi hamda muloyimligi bolalardagi barcha bilan muloqot qila olishligini, bolalarning tezda o'z o'rtoqlari bilan til topisha olishligini, erkin muloqot qila olishligini, sezgirlikni, mehribonlikni, o'zaro hamkor bo'lishlikni va shu kabilarni shakllantirishga samarali ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'mida shuni qayd etish joizki, mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida shakllanar ekan, ushbu jarayonda pedagoglar dars mashg'ulotlarini shunday tashkil etishlari kerakki, bo'lajak kadrlar kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtirish orqali o'z bilimlarini yanada oshira olishlari kerak. Ular talabalarni o'qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, bilim, ko'nikma va malakalar, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o'zlashtirish malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratashlari lozim hamda ularda hayotiy ko'nikmalarni egallashlariga yo'naltirishlari darkor.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr. <https://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2018 yil 21 sentabr. <https://lex.uz>.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.// "Xalq so'zi" gazetasi 2018 yil 8 dekabr.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat", 2008, 43-bet.
5. Quronov.M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz... .T. "Ma'naviyat", 2014, 22-bet.
6. Qilichova M.X. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish //Ta'limda kreativ yondashuv yo'llarini rivojlantirishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy, onlayn konferensiya materiallari. Jizzax, 2021, 252-bet.
7. Qilichova M.X. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish masalalari. /Maktabgacha ta'lim jurnali. Jizzax davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim fakulteti"ning elektron jurnali. 2021 yil oktabr.



MASOFAVIY TA'LIM – BILIM OLISHNING ENG MAQBUL USULIDIR

Sabirova Gulnora Baxtiyarovna

Xonqa tumani 40-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 579 58 38

gulnorabaxtiyarovna_5838@inbox.uz

Matnazarova Zuxraxon Mansurovna

Tuproqqal'a tumani 20-son o'qituvchisi

Telefon: +998 (20) 743 74 05

matnazarovazuxraxon_20@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola masofaviy ta'limning mohiyati, uning afzalliklari va kamchiliklari haqida.

Kalit so'zlar: Ta'lim shakllari, online ta'lim, masofadan o'qitish.

Ta'limning har xil shakllari, har birining ijobiy va salbiy tomonlari mavjud, ya'ni o'rganishning yagona to'g'ri usuli yo'q. Ammo deyarli hamma narsa axborot texnologiyasi yo'lidan ketayotgan dunyoda masofaviy ta'lim birinchi marta eng yaxshi usul bo'lishi mumkin.

Shuni aytish mumkinki, masofaviy ta'lim, bizning bugungi yosh avlodlarimiz uchun eng yaxshi yagona va to'g'ri yo'l bo'lishi mumkin. Masofaviy ta'limda ta'lim oluvchi va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda doimiy muloqatda bo'ladilar. Masofaviy ta'lim- masofaviy

o'qitishga asoslangan ta'lim. Masofadan turib o'qish majburan tiqishtirilgan tizim emas, balki insonning ongli, aniq maqsadga yo'naltirilgan tanlovidir.

Mamlakatimizda masofali ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'pchilik masofali ta'lim bu shunchaki bizga ma'lum sirtqi ta'limning yangi shakli deb hisoblaydilar. Ma'lum darajada bu shunday: haqiqatda ham inson uyidan chiqmasdan o'qishi mumkin. Lekin bir sharti bor: buning uchun standart dastur bilan zamonaviy kompyuteri bo'lishi kerak. Ushbudasturning mazmuni aynan masofali ta'lim va zamonaviy texnika hamda texnologiya bir-biridan ajralmasligidan iborat.

Masofali ta'lim g'oyasida aynan ta'lim an'anaviy turlarida qabul qilingan “o'quvchilarning bilimga intilishlaridan” “bilimlarni o'quvchilarga qarab harakatlanishi” juda muhim. Dastavval masofali ta'lim oily ta'limga ega insonlarning malakalarini oshirishlari uchun mo'ljallangan edi. Hozirgi kunda yanada kuchliroq texnikalar paydo bo'lishi bilan masofali ta'lim imkoniyatlari

kengaymoqda.

Masofaviy ta'limga axborot texnologiyalari joriy qilishning qator afzalliklari:

- yashash joyidan turib, o'qish imkoniyati - chekka qishloqlarda yashovchilarda katta shaharlarga borib, xohlagan maktablarida o'qish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. masofaviy ta'lim texnologiyalari ularga o'z shahridan ketmasdan turib, o'qish imkoniyatini yaratib beradi.

- o'qish va ishini barobar olib borish - o'qituvchilar ishdan ajralmagan holda ta'lim berish imkoniga ega bo'ladilar.

- sifatli texnologiyalar - o'quvchi sifatli o'quv materiallari yordamida o'qitilishi, o'qituvchi bilan muloqat qilishi va o'z uchun individual o'quv rejasini tuzishi mumkin.

- baholashning xolisligi - masofaviy ta'lim texnologiyalari orqali bilim sifatining doimiy nazorati, natijalarning baholanishini ko'zda tutadi.

Bundan tashqari, masofaviy ta'limda o'quvchilar tinglash orqali juda ham yaxshi o'rganadilar. Joriy mavzu uchun tayyorlangan video ma'ruza va uni ixtiyoriy vaqtda ko'rish imkoniyati, ko'zlangan maqsadga erishishda eng to'g'ri yo'l bo'la oladi, shubhasiz. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning juda ko'p ijobiy tomonlari mavjud.

Masofaviy ta'lim samarali ekanligining asosiy sababi, o'quvchining jismoniy qobiliyatlarini boshqa o'quvchilarga mavhumligidir. Ko'pincha o'quvchilar boshqa sinfdoshlaridan hijolat chekadi va qo'rqqanlari uchun savol berishdan tashvishda bo'ladilar. Bunda masofaviy ta'lim juda qo'l keladi va har bir o'quvchida savol so'rash imkoniyati bo'ladi ya'ni ular hech qanday to'siqlarga duch kelmaydi. Bu esa o'quvchilar erkin va ishonch ega bo'lgan holda dars olib borishi va o'tilayotgan mavzuni shoshilmay o'ylab olishlari mumkin. Eng asosiysi onlayn ta'limda o'quvchilar dam olish kunlarida ham o'qishlari mumkin. O'z navbatida, masofaviy ta'lim ham o'quvchiga bir qancha vazifalar yuklaydi.



Pirovardida, masofaviy ta’limning jamiyatga bo’lgan ijobiy ta’siri salbiy ta’sirlardan ustun turadi. Shunday ekan, barchamiz bir jamoa bo’lib, faqat yoshlarni har tomonlama yetuk inson bo’lishi uchun sitqi dildan xizmat qilaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. “Ta’lim – tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T: O‘zPFITI 2015 y.
2. J.G‘.Yo‘ldoshev. “O‘zbekiston respublikasi talimi-taraqqiyot yo‘lida” Toshkent “O‘qituvchi” 1994 y.



TARIX TA'LIMINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI: MOHIYATI VA MAZMUNI

Saidmuratova Dildora Komiljanovna

Urganch shahar 11-son umumiy
o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi
+998 972210088

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etish, aqliy hujum metodi, muammoli ta'lim texnologiyalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tarix, ilm-fan, bilim, o'quvchi, mazmun, aqliy hujum, muammo.

Yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar tufayli barcha, jumladan, ijtimoiy - iqtisodiy sohalarda, shuningdek, ta'lim tizimida ham keskin o'zgarishlar yuz bermoqda.

O'zbekistonda ilm-fan, texnika va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Bizning yangi avlodimiz, bilimli, o'tmishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlash va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirish, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslik olishni ta'minlash, tarixiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida ta'lim tizimining barcha kasbiy sohalarida tarix fanlarini o'qitish muhim hisoblanadi.

Tarix fanlarini o'qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko'nikma va malakani shakllantirish orqali o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularga kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim berishni ta'minlash va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga qiziqishini oshirish maqsad qilib olingan. Tarix fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, o'quvchilarning tanlagan kasbi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy bilim, tushuncha, tasavvurni yanada rivojlantirish hamda o'zining sohasiga doir tarixiy bilimlar bilan tanishtirish ularni hayotga va kasbiy faoliyatiga tatbiq etishni o'rgatishdir.

Kichik guruhlarda ish olib borish guruhlarda ishlash - bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruhlarda ishlashda (2 tadan - 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. Bunda asosiysi, topshiriq - natija emas, balki guruh ichidagi hamkorlik jarayonidir.

Guruhli treningda qo'llaniladigan asosiy uslublardan biri kichik guruhlarda ishni tashkil qilishdir. Ushbu uslubning psixologik jihatdan manzurligi, notanish masalalarni ko'rib chiqib, qaror qabul qilishda har bir ishtirokchi, guruh ishining yaxshi natijasi uchun ma'suliyatni sezgan holda ishga kirishadilar.

Shu uslubning ustunligi nimada? Kichik guruhlarda ishlaganda kamgap ishtirokchilar o'zlarini yaxshiroq his qiladilar. Aynan shunday odamlar uchun bu guruhlarda ishlash, o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishda juda qo'l keladi va kelajakda boshqa muhokamalarda o'z fikrlarini bildirib, ular aktiv ishtirok etadilar. Shu uslub yordamida uyatchan va kamgap ishtirokchilar ko'pchilik fikriga qo'shilmasdan o'z fikrlarini o'rtaga tashlashga harakat qiladilar.

Guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasi:

Tanqidiy fikr – bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. Yana bu qoidaga aniqlik kiritadigan bo'lsak, fikrlash – bu o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvoffiqashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Tanqidiy (tahliliy) fikr shu bilan ahamiyatlidir: - hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib etishga yordam beradi;

-jamoaning ochiq fikrini rag'batlantiradi;

- shaxsning rivojlanishiga sharoit yaratishi va boshqalar.

O'quv dasturlaridan o'rin olgan muammoli mavzular muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda muammoli dars «aqliy hujum» shaklida o'rganilishi tavsiya etiladi va munozarali mavzular munozarali dars shaklida o'rganilishi maqsadga muvoffiq. O'quv jarayonida munozarali darslarning ikki xili: ilmiy munozara va erkin fikrlash darslaridan foydalaniladi.



Interfaol metodlar - o`zaro fikr almashishga, o`zaro fikrlarni to`ldirishga, noverbal va verbal ta`sir o`tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlar o`zaro ta`sir asosida qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta`sir, turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik subektlarini ijodiy izlanishga yo`naltirish, noma`lum holatni ochishga, kashf etishga ko`mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin.

Muammoli vaziyat qanday hosil qilinadi? Buning uchun bajarilishi lozim bo`lgan topshiriq e`lon qilinadi. Endi shu vazifani bajarish uchun talaba bor bilim va ko`nikmalarini eslaydi, topshiriqni bajarishda shu paytgacha egallagan bilimlarining yetishmasligini sezish bilan birga talaba shaxsida ma`lum psixologik qarama-qarshilik shaklidagi holat yuz beradi. Galdagi muammo topshiriqni bajarish va shu topshiriqni bajarish uchun yangi bilim, iqtidor va ko`nikmalarni izlash muammosi paydo bo`ladi. Ana shu vaziyat esa, muammoli tahsilning boshlanish jarayoni hisoblanadi.

Pedagog o`quvchilarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e`tibor bilan kuzatadi, kerak bo`lganda jonli muloqotga chorlaydi. O`quvchilar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinib tahsil oxirida faol talabalarga qo`yilgan ballar yoki baholarni e`lon qiladi.

Adabiyotlar:

1. Fuzailova G.S, Rahmatullayeva O.R. “Tarix fanini kasbiy sohalarga yo`naltirib o`qitish metodikasi”. Uslubiy qo`llanma. – T., TDPU, 2012.
2. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliy o`quv yurtidagi zamonaviy ta`lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo`llanma
3. “Zamonaviy ta`lim texnologiyalari” turkumi. - T.: TDIU, 2009.



TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARI FIKRLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Dildora Shamsiyeva

Fargona tumani 50-Davlat MTT tarbiyachisi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalar fikrlash faoliyatining turlari, ularning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida fikr boradi.

Kalit so'zlar: fikrlash, ko'rgazma-amaliy, so'z-mantiqiy, ko'rgazmali-obrazli, mantiq, nutq, anglash, faoliyat.

Faol fikrlash insonning irodasi bilan, ya'ni muammo (savol) doirasida u tomonidan belgilangan fikrlash dasturi bo'yicha quriladigan va dinamik ravishda saqlanib turiladigan fikrlash jarayoni hisoblanadi. Bunday fikrlash jarayoni reaktiv fikrlashdan farqli ravishda, muayyan malakalarni, ayniqsa, diqqatni jamlashni talab etadi, bunda miya o'ziga kelib tushadigan qo'zg'atuvchilarga javoban ta'sirlanadi yoki tartibga solinmagan ichki so'rovlarga javob qaytaradi. Faol fikrlashga o'rganish mumkin.

Maktabgacha yosh davrida ko'rgazma-amaliy fikrlashning keyingi rivojlanishi, so'z-mantiqiy fikrlash elementlarining shakllanishi yuz beradi. Maktabgacha yosh davridagi bolalar fikrlash faoliyatining asosiy shakli ko'rgazmali-obrazli fikrlash hisoblanadi.

—Ilk qadam davlat o'quv dasturida bolalarning aqliy faoliyati to'g'risida quyidagilarni nazarda tutadi:

Bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;
- o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;
- predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g'amxo'r munosabatni namoyon etadi.

Maktabgacha yosh davridagi bolalar masalalarni yechishda o'rganilayotgan predmetni qayta o'zgartiruvchi amaliy hatti-harakatlar bilan bevosita aloqadorlikdagi ko'rgazmali-amaliy fikrlashdan foydalanishda davom etadilar. Maktabgacha yosh davri davomida bolani yanada turli-tuman va murakkab fikrlash masalalarini tuzish va yechishga undovchi, uning kengayib boruvchi amaliyoti, ortayotgan ehtiyojlari, nutq rivojlanishi ta'sirida ko'rgazmali-amaliy fikrlash takomillashib, yuqoriroq darajaga o'tadi, u esa quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- katta maktabgacha yosh davridagi bolalarda masalani ko'rgazmali-amaliy yechishga og'zaki shakldagi xayolan yechish hamrohlik qiladi;
- bola tomonidan amalga oshiriladigan hatti-harakatlarning mohiyati o'zgaradi (sinab ko'rib harakatlari ixchamlashadi, o'zining muammoliligini yo'qotadi, ko'roq ijro etish harakatlari bilan almashadi).

Fikrlashning ko'rgazmali-amaliy shakli yo'qolmaydi, yangi aqliy masalalarni yechishda bola yana ularni yechishning amaliy usulidan foydalanadi. Bunday masalalarni yechishda u yoki bu tarzda nutqdan foydalaniladi. Bola tomonidan faol va passiv lug'atning va nutqning grammatik tuzilishining shakllanishi masalani anglashga, uning yechish usullarini tushunib yetishga yordam beradi.

Bolaning amaliy faoliyatini kiritilganida nutq uning fikrlash jarayonini o'zgartiradi va amaliy hatti-harakatni tuzilishi bo'yicha murakkab bo'lgan aqliy harakatga o'zgartirishga yordam beradi.

Maktabgacha yosh davridagi bolalar fikrlash faoliyatining ustun shakli ko'rgazmali-obrazli fikrlash hisoblanib, unda bola aniq bir predmetlar bilan emas, balki ularning obrazlari va tasavvurlari bilan harakat qiladi. Fikrlashning bunday turi haqiqiy ob'ektlarni va mazkur ob'ektlarni aks ettiruvchi modellarni tabaqalashtirish qobiliyati asosida shakllanadi. Asl ko'rinishi bilan bog'liq modellar bilan amallar bajarish, hatti-harakatning aniq bir ob'ektlardan ajralishi imkonini beradi.



Образли fikrlashning muhim sharti – katta insonga taqlid qilish bo’lib, uning davomida bola katta insonning hatti-harakatini takrorlaydi, modellash tiradi va ularning obrazini quradi. O’yinni ham taqlidning shakllaridan biri deb hisoblash mumkin, chunki o’yin faoliyatida bolada bir buyumni boshqasi yordamida ifodalash qobiliyati namoyon bo’ladi.

Obrazning ilk ajralishi ob’ektning ahamiyatli belgisini ajratish bilan emas, balki bolaning tajribasida kuchliroq mustahkamlangan belgini ajratish bilan amalga oshiriladi.

Bolaning fikrlash faoliyatining yana bir shakli so’z-mantiqiy fikrlash hisoblanadi va u maktabgacha yosh davrining so’ngida hosil bo’ladi. Mantiqiy fikrlash mavhum tushunchalarni qo’llash va ko’rgazmali yoki obrazli shaklda ifodalanmagan turli munosabatlarni o’rnatish bilan farqlanadi. Bolalar ob’ektlarni, ularning xususiyatlari va ular bilan amallarni erta yodlaydilar, ammo umumiy ahamiyatli belgilari bilan bir turdagi predmetlar majmuini umumiy ifodalash sifatidagi mazkur so’zlar bilan ifodalanadigan tushunchalar maktabgacha yosh davridagi bolalarda asta-sekin shakllanadi.

Maktabgacha yosh davrida umumlashtirishning rivojlanish darajasi quyidagilar bilan bevosita aloqadorlikda bo’ladi:

- maktabgacha yosh davridagi bolaning mazkur guruhga kiritilgan predmetlarning turli-tumanligi bilan tanishligi darajasi;
- mazkur guruhdagi barcha predmetlarni umumlashtiruvchi so’zni bilish;
- katta insonning bolaga qo’yadigan talablari (ular orasida tushunchani aniqlash, ya’ni —bu nima savoliga javob, ayniqsa, qiyin hisoblanadi; bolalar uchun bir turdagi predmetlarni guruhga birlashtirish osonroq hisoblanadi).

Maktabgacha yosh davridagi bolaning fikrlashining aniq obrazlilikgi ayrim sodda fikrlar va mulohazalarni inkor etmaydi. Maktabgacha yosh davridagi bolaning mantiqiy fikrlashi ixtiyoriy shaklda umumiy o’ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi: masalada va uning yechimida tanish bo’lmagan shartlar o’rniga-tanish hissi asosda ko’proq tanish bo’lganlarini oson qo’yish, nafaqat ob’ektlarning ahamiyatli xususiyatlari o’rtasidagi, balki tasodifiy, tashqi, ikkinchi darajali jihatlari bilan sodda aloqalarni o’rnatish amalga oshiriladi. Bu maktabgacha yosh davridagi bolalar fikrlash jarayonlarining o’zi xosligi bilan bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги 391-сон — Мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлигининг 2018 йил 7 июлдаги 4-сонли хайъат йиғилиши қарори билан тасдиқланган мактабгача таълим муассасалари учун «Илк қадам». Мактабгача таълим муассасалари давлат ўқув дастури. Тузувчилар: И. В. Грашева, Л. Г. Евстафеева, Д. Т. Махмудова, Ш. Б. Набихонова, С. В. Пак, Г. Э. Джанпеисова. — Т.: МТВ, 2018. — 69 бет.
3. Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган янги Давлат талаблари. Тошкент — 2018.



TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Xasanova Farog`at Oblayarovna

Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi yetakchi o`qituvchisi
Телефон +998966636363

O`rta maxsus va professional ta`lim o`quvchisining zamon talablariga javob bera oladigan, Prezidentimiz kutganidek barkamol avlod bo`lib O`zbekiston kelajagini gullab-yashnatadigan malakali kadrlar bo`lib yetishishlarida ilg`or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati juda katta. Multimedidan foydalanish, elektron darsliklar, prezentatsiyalardan foydalanish, innovatsion texnologiyalarni qo`llash jarayonini tashkil qilishni muammo sifatida qarab hal etish ko`p jihatdan o`qituvchining kasbiy malakasi va pedagogik mahoratiga bog`liq. Bular barchasi axborot texnologiyalarini tashkil etadi. Axborot texnologiyalari - ma`lumotlarni izlash, to`plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish metod va vositalar majmui. Bunda o`quvchiga yetkazilishi kerak bo`lgan bilim doirasida ma`lumotlar izlanadi, to`planadi va axborot texnologiyalari (kompyuter, multimedia vositalari) asosida qayta ishlanib, o`quvchi uchun asosiy tushunchalar aniq, sodda ko`rinishda taqdimot yoki elektron darslik shaklida berilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ta`lim texnologiyalari - ta`lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslarini, ularning o`zaro ta`sirini hisobga olgan holda bir butun o`qitish va bilimlarni o`zlashtirish jarayonini yaratish, qo`llash va aniqlash tizimi. Axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish har bir o`quvchidan zamonaviy-axborot texnologiyalarining jamiyatimiz taraqqiyotidagi istiqboli haqida tasvurga ega bo`lishi, turli axborot manbalaridan foydalana bilishi, keyingi ta`lim bosqichida, hayotda uchraydigan o`quv yoki kasbiy masalalarni yechish uchun axborot texnologiyalarini tadbiq etish tasavvuriga ega bo`lishni taqozo etmoqda. Bu texnologiyalarning dolzarbligi va qulayligini quyidagicha e`tirof etish mumkin:

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalarini ro`yobga chiqarish;
- O`qituvchi va o`quvchi rolini o`zgartirish;
- Axborotning keskin ko`payganligi va ularni o`quvchiga yetkazish uchun vaqtning chegaralanganligi;
- Axborot texnologiyalari o`quv materiallarini yetkazib berishni ancha osonlashtiradi;
- O`quvchining ehtiyoji, tayyorgarlik darajasi, intellektual qobiliyatiga ko`ra tayyorlash imkonini beradi;
- Fanni o`zlashtirish bosqichlarida o`z-o`zini nazorat qilish imkoni mavjud;
- Kompyuterlashtirilgan o`quv xonalarida o`tkazilgan dars amaliy ishlarda yengilliklar tug`diradi;
- O`quvchi vaqtdan unumli foydalanadi.

Mavjud imkoniyat va sharoitlardan oqilona foydalanish zamon talablariga javob bera oladigan malakali kadrlar yetkazishda ijobiy ta`sir qiladi. O`quvchining o`z ustida ishlashiga, ijodkorlik qirralarining ochilishiga zamin yaratiladi. Zero bizning kundan-kun ravnaq topayotgan yurtimizga nafaqat bilimli, balki olgan bilimni hayotda qo`llay oladigan va zamonaviy texnikalarni kasbiy faoliyatida qo`llay oladigan ijodkor yoshlar zarur. Bugungi kunda o`qitish jarayonini qanday qilib maqbullashtirish mumkin, degan savol qo`yilmoqda. Buning oqibati o`laroq o`qitish jarayonini tashkil etishga qo`yiladigan asosiy talablar ham anchamuncha oydinlashadi. Bular quyidagilardan iborat:

- o`qitishning uslub va usullarini individuallashtirish va intellektuallashtirish;
- bilimlarni ijodiy qabul qilish - qo`llaniladigan ta`lim vositalarining muloqotbopligi, aloqa uchun qulayligi;
- ta`lim oluvchilarning bilish qobiliyatini yuksak darajada shakllantirish.

Hozirgi zamon axborot va telekommunikasion vositalari o`quvchi-talabalarga o`rganiladigan har bir predmetni qiyinlik darajasiga ko`ra tanlashga, shuningdek, ularni o`zlarining qiziqishi va kasbiy rejalariga muvofiq holda o`rganishga imkon beradi. Bu hol ta`limda o`tmishdan saqlanib kelayotgan eski qarashlarni o`zgartiradi. Ta`lim islohotining hozirgi bosqichida o`qitishning zamonaviy texnologiyasi - masofadan o`qitish tizimi uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Birinchidan, kompyuter kommunikasiya vositalarining dastur-apparatini ishlab chiqish rivojlandi. Ikkinchidan, kasbiy bilimlar eskirib, malaka oshirish va qayta tayyorlashga majbur etuvchi mehnat resurslari soni ortdi va endilikda o`qitishning an`anaviy shakllari orqali kasbiy mahoratni oshirish ehtiyojini qondirib bo`lmay qoldi: masofadan o`qitish orqali ta`lim jarayonini tashkil etish xarajatlarini pasaytirish evaziga uning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyati tug`ildi. Uchinchidan, jamiyatning ta`limni takomillashtirish va isloh qilishga bo`lgan ehtiyoji ortdi, ta`limni ta`lim oluvchilar ehtiyoji va real imkoniyatlarga ko`ra tashkil etish uchun sharoit yaratildi. Axborot



texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha jamiyatimizning tez suratlar bilan o'sib boruvchi ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda O'rta maxsus va professional ta'lim sohasida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda elektron qo'llanmalar, virtual stendlar, masofaviy o'qitish hamda internet imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy, uslubiyat jihatdan takomillashtirish muammolari dolzarbdir. Demak, ta'lim jarayonini axborotlashtirish: - shaxsning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish; - jamiyatning har bir a'zosini o'z malakasini oshirish va faoliyat sohasini o'zgartira olish; - tezkor ta'lim uchun shart-sharoit yaratish va masofaviy ta'lim samarasini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Masofaviy ta'limning ustuvorligi – T., 2009. A.Hamidov,D.Aliyeva
2. Ta'limda axborot texnologiyalari.Oliy ta'lim muassasalari uchunR.Hamdammov,U. Begimqulov



ТА’ЛИМ ВА ИҚТИСОДИЙОТНИНГ О’ЗARO BIR-BIRIGA BOG’LIQLIGI

Yaxshilikova Nilufar G’aybullayevna
 Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat
 salomatligi texnikumi o’qituvchisi
 Телефон +998977959197

Ta’lim-tarbiya sohalariga qilinadigan sarf-xarajatlar, say harakatlarning barchasi bu – kelajak uchun kiritilayotgan investitsiya hisoblanadi. Chunki bularning barchasi yoshlar uchun yaratib berilmoqda. Yoshlar esa kelajak davomchilari, mustaqillik himoyachilari, iqtisodiyot deb ataluvchi mexanizmning yurituvchilari hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizning deyarli barcha viloyatlari, hududlarida o’quv markazlari o’z faoliyatini olib bormoqda. Xuddi mana shu o’quv markazlaridan olinadigan soliqlar stavkalariga imtiyozlar kiritish hamda ushbu soliqlarni o’quv markazlari salohiyatidan kelib chiqqan holda belgilansa maqsadga muvofiq bo’ladi. Ya’ni ular tayyorlab bergan abituriyent kadrlar qay darajada oliygohlarga kira olishlari statistik ma’lumotlari davlat, soliq organlari tomonidan tahlil qilinishi lozim. Bu albatta o’qituvchi xodimlardan yuqori darajadagi malakani talab qiladi. Shu bilan bir qatorda soliq stavkalarining imtiyozi tufayli o’qitish mablag’lariga ham imtiyozlar yaratib beradi. Bu esa abituriyent kadrlar uchun iqtisodiy jihatdan qulay bo’lib o’ziga kerakli barcha fanlarni o’zlashtirishiga zamin yaratib beradi. Bundan tashqari har oyning oxirida ulardan o’zlashtirish darajalarini aniqlash maqsadida nazorat testlari, yozma ishlari olinib yuqori darajada o’zlashtirgan o’quvchilarga kam miqdorda bo’lsada rag’batlantirishlar imtiyozlar joriy qilinsa, bu o’quvchining ilm olishga bo’lgan ishtiyoqini oshiradi. Respublikka byudjetining 65%i ijtimoiy sohaga jalb qilinayotgan bo’lsa buning ichidan 35%i ta’lim sohasiga qaratilgan. Bu say harakatlarning barchasi kelajak kadrlarini yuqori pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o’qitilishiga sharoit yaratib berish hisoblanadi. Davlat va nodavlat ta’lim muassasalari rivojlantirilib, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi, ta’lim xizmati ko’rsatish bozori davlat yo’li bilan boshqarib boriladi. Asosiy ta’lim dasturlarida nazarda tutilmagan konsultativ va qo’shimcha ta’lim xizmatlaridan iborat pullik ta’lim xizmati ko’rsatish tizimi rivojlantiriladi. Ta’limni va kadrlar tayyorlashni moliyalash tizimi takomillashtiriladi, uning ko’p variantli (byudjetdan ajratiladigan va byudjetdan tashqari manbalardan) tizimi joriy etiladi, ta’lim muassasalarining o’zini o’zi pul bilan ta’minlashi rivojlantiriladi, xususi hamda chet el investitsiyalarini ta’lim sohasiga jalb etish rag’batlantiriladi. Uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlashda donorlar va homiylarning mavqei kuchayib boradi. Pullik ta’lim xizmatlarini ko’rsatish, tadbirkorlik, maslahat, ekspert, noshirlik, ishlab chiqarish, ilmiy hamda ustavda belgilab qo’yilgan vazifalarga muvofiq boshqa tarzdagi faoliyat hisobidan ta’lim muassasalarining daromadlari ko’payishi ta’minlanadi. Ishlab chiqarish va ta’lim tizimi integrasiyalashuvini rivojlantirish o’quv-ishlab chiqarish majmualarini (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblarni bilan jihozlash rag’batlantiriladi. Xulosa qilib aytganda, kadrlar tayyorlash va birgalikdagi ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo’llab-quvvatlansa, ilg’or texnologiya sohasida pedagog kadrlarning malakasi bevosita ishlab chiqarishda muntazam ravishda oshirib borilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Masofaviy ta’limning ustuvorligi – T., 2009. A.Hamidov,D.Aliyeva
2. Ta’limda axborot texnologiyalari.Oliy ta’lim muassasalari uchunR.Hamdamov,U. Begimqulov



INTERFAOL METODLAR-MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING KO'P QIRRALI RIVOJLANISHI OMILI SIFATIDA

Yuldasheva Dilfuza Muhammadjonovna

Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani
50-DMTT direktori

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv jarayoni sifatini oshirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol metodlar haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: shakl, usul, interfaol, ko'p qirrali, texnologiya, moslashish, dialog, polilog, kompetentsiya.

Hozirgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ularning ko'p qirrali rivojlanishini rag'batlantiradigan samarali shakl va usullarini izlash dolzarb ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limning maqsadi- jamiyatda faol ijtimoiy moslashishga qodir bo'lgan juda aqlli va ko'p qirrali shaxslarni tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta'limning zamonaviy modeli ta'lim jarayonidagi eng muhim narsa – har bir bola shaxsini, uning faolligini ta'minlaydigan pedagogik texnologiyalarni yaratish va qo'llash zarurati sifatida ifodalanadi. Bugungi kundagi tarbiyachi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak. Chunki bugungi kunda shaxsni emas, balki uning rivojlanish jarayonini boshqarish zarur ekanligi aniq ko'zga tashlandi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi pedagogik jarayonni shunday tashkil yetishni nazarda tutadiki, unda bolaning jamoaviy o'zaro munosabatlarda qatnashmasligi mumkin yemas. Interfaol ta'lim bilishning birgalikdagi jarayoniga asoslanadi, bu yerda bilim tarbiyalanuvchilarning o'zlari va tarbiyachi o'rtasidagi dialogi va polilogi orqali olinadi.

Interfaol o'yin nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarning bir-biri va tarbiyachi bilan o'zaro ta'sirini, balki ijtimoiy yo'nalishdagi birgalikda tashkil yetilgan bilim faoliyatini anglatadi. Interfaol o'yin davomida guruh ishtirokchilari yangi tajribalarni, yangi rollarni o'zlashtiradilar, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradilar, olingan bilimlarni turli sohalarida qo'llay oladilar, muammolarni hal qila oladilar, bag'rikenglik shakllanib, mas'uliyat ortadi. Interfaol o'yin o'tkazish uchun quyidagi algoritm mavjud:

1. Tarbiyachi tomonidan bir guruh bolalar uchun topshiriq va mashqlarni tanlash. (Tayyorlov guruhida o'tkazish mumkin.)

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar hal qilinadigan muammo bilan, maqsadga yerishish bilan tanishadilar. Muammo va vazifaning maqsadi tarbiyachi tomonidan aniq va ravshan shakllantirilishi kerak, shunda bolalarda ular nima qilishlarini tushunmaslik va foydasizlik hissi paydo bo'lmaydi.

3. Bolalarga o'yin qoidalarini haqida ma'lumot beriladi, ularga aniq ko'rsatmalar beriladi.

4. O'yin davomida bolalar maqsadga yerishish uchun bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Agar ba'zi bosqichlar qiyinchilik tug'dirsa, tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarning harakatlarini to'g'rilaydi.

5. O'yin tugagandan so'ng (zo'riqishni yengillashtirish uchun mo'ljallangan qisqa pauzadan so'ng) natijalar tahlil qilinadi, natijalar jamlanadi.

“Vaziyatni tahlil qilish” usuli turli xil vaziyatlarni real va xayoliy tahlil qilishni nazarda tutadi. Ish bilan ishlashda tarbiyalanuvchilar asosiy kompetentsiyalarning quyidagi tarkibiy qismlarini rivojlantiradilar: muammolarni hal qilish, muloqot qilish, mavzu bilimlarini amalda qo'llash, muzokara qilish qobiliyati, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, bag'rikenglik, refleksiv ko'nikmalar.

“Loyiha usuli”. Muammoni hal qilish uchun g'oyalarni ishlab chiqarishga qaratilgan ushbu usul uyushgan munozara paytida qo'yilgan muammoli vazifalarni birgalikda hal qilish jarayoniga asoslangan. Raqobat ruhi o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradi.

“Uyushmalar usuli” dan foydalanish tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyati va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi, yodlash mexanizmlarini yaxshilaydi, so'z boyligini boyitadi.

“Juftlikda ishlash” dan foydalanib, bolalar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'lishni, juftlarga birlashishni o'rganadilar. Juftlikda ishlash, bolalar muzokaralar olib borish, izchil va birgalikda ishlash qobiliyatini yaxshilaydilar. Juftlikdagi interfaol mashg'ulotlar muloqotga kirishishda hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.



“**Dumaloq raqs**” texnologiyasidan foydalanish jarayonida bolalar javoblarni tinglash va bir-birlarini to'xtatmaslik qobiliyatini rivojlantiradilar. “Dumaloq raqs” interfaol texnologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zboshimchalik bilan xulq-atvorning dastlabki ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Interfaol texnologiya maktabgacha yoshdagi bolalarning jamoada ishlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu texnologiyaning asosi har bir ishtirokchi tomonidan bitta vazifani izchil hal qilishdir. Umumiy maqsadning mavjudligi, bitta umumiy natija hamdardlik va o'zaro yordam muhitini yaratadi, bizni bir-birimiz bilan muloqot qilishga, vazifaga yechim taklif qilishga majbur qiladi.

“**Intervyu**” interfaol texnologiyasi bilimlarni mustahkamlash yoki umumlashtirish, ish natijalarini jamlash bosqichida qo'llaniladi. Ushbu texnologiyadan foydalanish tufayli bolalar dialogik nutqni faol rivojlantiradilar, bu ularni “kattalar-bola”, “bola-bola” bilan o'zaro aloqada bo'lishga undaydi.

“**Mikrofon**” texnologiyasi-bu har kimga o'z fikrini, pozitsiyasini ifoda yetish yoki savollarga javob berish, o'z navbatida biron bir narsani tezda aytish imkoniyatini beradigan guruh muhokamasining bir turi.

“**Kichik guruhlarda ishlash**” (uch) guruhli ishlash texnologiyasidan foydalanish barcha bolalarning sinfda ishlashiga imkon yaratadi. Yigitlar o'z ishini, do'stining ishini baholashni, muloqot qilishni, bir-birlariga yordam berishni o'rganadilar. O'quv jarayonida hamkorlik tamoili yetakchi tamoyilga aylanadi.

“**Akvarium**” - bu bolalar muammoni “jamoatchilik oldida” muhokama qilishga taklif qilingan muloqot shakli.”

“**Katta doira**” texnologiyasi-bu har bir bolaga gapirish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, olingan ma'lumotlardan xulosa chiqarish va vazifani hal qilish imkonini beradigan texnologiya.

“**Bilim daraxti**” muloqot qobiliyatlarini, muzokaralar olib borish, umumiy vazifalarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bolalar muzokara qilishni, kichik guruhlariga birlashishni, vazifalarni bajarishni, tahlil qilishni va baholashni o'rganadilar.

“**Tanishish**” bu- noaniqlik va jamoat oldida so'zlashdan qo'rqishni yengib, o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida interfaol texnologiyalarni ish amaliyotiga joriy yetish natijasida pedagogik jarayonning sifati va samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi. O'qitishning interaktiv usullaridan foydalanish bolalarning bilim faoliyatini faollashtiradi, kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, maktabgacha yoshdagi shaxsning ko'p qirrali rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov M. YAngi pedagogik texnologiyalar - Karshi.: Nasaf, 2000.
2. uz.tierient.com
3. ds-11.kaluga.prosadiki.ru



«ОБРАЗОВАНИЕ», «ОБУЧЕНИЕ», «ВОСПИТАНИЕ» – КАТЕГОРИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА

Джуманиязова Гавхар Балтаевна
учительница русского языка и литературы
средней школы № 11 города Ургенча .
тел. +99890 713 55 75

Аннотация: в данной статье анализируется, как сочетание обучения и воспитания может повысить качество образования.

Ключевые слова: обучение, воспитание, образовательный процесс, ученик.

Педагогический процесс раскладывается на составляющие: «образование», «обучение», «воспитание». В современной науке под «воспитанием» понимают передачу исторического и культурного опыта от поколения к поколению. При этом воспитатель: передает опыт; вводит в мир культуры; стимулирует к самовоспитанию; помогает разобраться в трудных жизненных ситуациях и найти выход из сложившегося положения. В свою очередь, воспитанник: овладевает опытом человеческих отношений и основами культуры; работает над собой; обучается способам общения и манерам поведения.

В результате воспитанник изменяет свое понимание мира и отношение к людям и самому себе. Воспитание диалектически взаимосвязано с обучением. Воспитание способствует развитию и утверждению основных качеств личности, проявляющихся в поступках. Эти качества характеризуют социальные, нравственные позиции; индивидуальные устремления. «Обучение» – понимается как процесс взаимодействия учителя и обучающихся, в результате которого обеспечивается развитие ученика. При этом учитель: преподает – целенаправленно передает знания, жизненный опыт, способы деятельности, основы культуры и научного знания; руководит процессом освоения знаний, навыков и умений; создает условия для развития личности учащихся (памяти, внимания, мышления). В свою очередь, обучающийся: учится – овладевает передаваемой информацией и выполняет учебные задания с помощью преподавателя, совместно с одноклассниками или самостоятельно; пытается самостоятельно наблюдать, сравнивать, мыслить; проявляет инициативу в поиске новых знаний, дополнительных источников информации (справочник, учебник, Интернет), занимается самообразованием. «Обучение – воспитание» направлено, прежде всего, на развитие деятельностных и личностных характеристик человека на основе его интересов, приобретенных знаний, умений и навыков. Третья категория педагогики – «образование» – понимается как: ценность развивающегося человека и общества; процесс обучения и воспитания человека; как результат последнего; как система.

Образование как система – это социальная система. В Узбекистане система образования представляет собой совокупность: □ образовательных программ и государственных образовательных стандартов различного уровня и направления – сети реализующих их образовательных учреждений различных организационно-правовых форм, типов и видов; □ органов управления образованием и подведомственных им учреждений и предприятий. Содержание образовательного процесса совокупность обучения, образования, воспитания тщательно планируется, отбирается, подвергается анализу и на этой основе структурируется, приводится в соответствие с возрастными возможностями студентов.

Основным результатом деятельности СПО (следовательно, образовательного процесса) является набор ключевых компетенций выпускника в интеллектуальной, гражданско-правовой, коммуникационной, информационной, профессиональной сферах. Овладение ими позволяет специалисту решать различные проблемы в профессиональной, повседневной или общественной жизни.

Список литературы:

1. Коротяев Б. И., Патлачук В. Н. Педагогика. К.: Интеллект, 2009.
2. Кондратова Л. В., Бурак В. К., Гапоненко Л. А. Индивидуальная работа студентов по педагогике. Кривой Рог: КГПУ, 2009.



ТИББИЙ ТАЪЛИМДА СИМУЛЯЦИОН ТАЪЛИМНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ

Дилфуза Камбарова,
Педагогик инновациялар институти
мустақил тадқиқотчиси
Телефон: +998 97 998 88 67

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақолада тиббий таълимда симуляцион таълимнинг аҳамияти, мақсади ва вазифалари ёритилган. Шунингдек симуляцион марказларларни ташкил этиш орқали тиббий таълим сифатини ошириш, замонавий тиббий ахборот коммуникация технологияларининг функционал, техник ва технологик имкониятларига таяниб тиббий таълимни такомиллаштириш масалалари ёритилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: тиббий таълим, симуляция, сифат, ўқув-симуляция, имитация, виртуал, тренинг, симуляцион муляжлар.

Мамлакатимизда тиббий таълимда симуляцион таълим воситаларидан кенг фойдаланиш, симуляция марказларини ташкил этиш борасида кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Андижон давлат тиббиёт институтида ўқув-симуляция маркази ташкил этилди. Ушбу кўп функцияли марказда яъни ўқув-симуляция лабораторияси ташкил этилган бўлиб, талабаларга сифатли билим бериш, назария ва амалиётни уйғун олиб бориш имкониятини яратади.

Таълим сифатини оширишда симуляцион ўқитишнинг қайтариш ва кўп маротаба кузатиш, имитацион ва виртуал тренинг сингари қатор устувор йўналишлари марказ фаолиятига тўлиқ татбиқ этилади. Натижада талабалар бемор билан ишлаш борасида етарли амалий тажрибага эга бўлади. Марказнинг пулт-назорат марказида эса улар шифокор ва талабаларнинг беморни кўриш, у билан мулоқот қилиш, тавсиялар бериш жараёни қай даражада бажарилаётганини виртуал тарзда бевосита кузатиши мумкин. Шунингдек, талабаларнинг амалий кўникмасини назорат қилиш ва баҳолаш учун алоҳида мониторинг маркази ҳам ташкил этилди.

Тиббиётда симуляцион ўқитиш бўйича Европа ҳамда Россия мутахассисларининг услубий тавсиялари, амалий кўмаги билан ташкил этилган ўқув-симуляция лабораторияси ишини самарали йўлга қўйиш талабаларнинг амалий тайёргарлиги, билим ва малакасини баҳолаш, ўзига хос клиник қарор қабул қилиш кўникмасини ривожлантириш, шунингдек, илғор хорижий тажрибаларни татбиқ этишга хизмат қилади.

Шундай қилиб, ҳозирги кунда тиббиёт мутахассисларини ўқитиш учун симуляция сифати, нархи ва ўқитиш имкониятлари билан ажралиб турадиган турли хил симуляцион таълим қурилмалари мавжуд.

Симуляцион таълим мақсади – тиббий фанларини ўқитишда инновацион технология – симуляцион муляжларда тегишли амалий кўникмаларни бажаришда қўллаш орқали таълим самарадорлигини ва амалий компетенцияларни ривожлантиришдан иборат.

Симуляцион таълимнинг вазифалари:

1. Тиббий фанларининг назарий қисмини инновацион технологияларнинг турли йўналишларини қўллаш орқали фанларни ўзлаштириш жараёнини таҳлил қилиш;
2. Таълим жараёнида тиббий фанларнинг амалий кўникмалар қисмини симуляцион муляжларда бажариш орқали ўқитиш ва амалий машғулотларга татбиқ этиш.

Тиббий симуляторларда ўқув жараёнини ташкил этишнинг ягона тизими ҳали ишлаб чиқилмаган. Бироқ, ҳозирги даражада тиббиёт ёки илмий-таълим муассасасида мавжуд бўлган симуляторларни ягона ўқув бўлимларига йиғиш тенденцияси мавжуд. Бундай схеманинг афзалликлари яққол кўриниб турибди: ўқитиш ва жиҳозларга техник хизмат кўрсатишни ташкил этиш бўйича ихтисослашган ходимлар, ягона сарф материаллари тўплами мавжудлиги сабабли эксплуатацион харажатларни камайтириш, жамоавий тренингларни ташкил этиш имконияти, катта ўлчамдаги симуляторларни ўрнатиш учун ҳудуд билан таъминлаш (масалан, тез ёрдам бригадалари учун тренажерлар).

Симуляцион таълимнинг ўқув таркибидаги ўрни ва улуши асосан у ишлаб чиқариладиган тиббиёт мутахассислигининг хусусиятига боғлиқ. Ҳозирги вақтда симуляцион ускуналари



учун умумий қабул қилинган стандартларнинг етишмаслиги ва натижада уни қўллаш натижаларини таққослашдаги қийинчиликлар туфайли самарадорлигини текширишга тўсқинлик қиладиган жуда кўп сонли ўқув схемалари мавжуд. Аммо тиббиётда симуляцион ўқитишнинг мақсадга мувофиқлиги дунёнинг аксарият мамлакатларида тан олинган.

Бугунги кунга келиб, симуляцион таълимнинг долзарблиги, самарадорлиги ва хавфсизлиги тан олинган. Етакчи тиббиёт мутахассислари, тиббиёт ўқитувчилари ва симуляцион тиббий таълимни ишлаб чиқувчиларининг асосий вазифаларидан бири узлуксиз тиббий таълим тизимида симуляцион таълимдан фойдаланишнинг ягона тизимини яратишдир. Ушбу соҳадаги етакчи мутахассисларнинг кўпчилигининг фикрига кўра ушбу вазифани амалга оширишнинг энг мақбул ва кенг тарқалган шакли бу ўқув симуляция марказларини яратишдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жамолов А.К. Формирование профессиональной компетентности учащихся медицинского колледжа. //Образование через всю жизнь. Непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 15-й международной конференции 2-4 июня 2017 года, том I. Выпуск 15 часть 1. - Казахстан, Астана, 2017. -116-120 с.
2. Зияйева М.Ф., Ходжашева М.Д., Касимова Д.И., Хамедова М.А., Очилов Ў.Б. Катталарда хамширалик парвариши. 1-қисм. – Т.: «Нисо полиграф» нашриёти. 2014.
3. Зияева М.Ф. Бўлажак тиббиёт ходимининг йўналганлигини шакллантиришни бошқаришнинг педагогик тизими. Пед. фан. ном.диссер. Т.: 2007. – 191 б.
4. Ибрагимова Е.М. О формах и метода интерактивного обучения в высшей школе / Дидактика профессиональной школы: сборник научных статей/Под ред.член-корр. РАО Г.И. Ибрагимова. - Казань: Издательство «Данис», ИПП ПО РАО, 2013. С. 62-68.



ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КЎРГАЗМАЛИ ҚУРОЛЛАР ВА ЎҚИТИШНИНГ ТЕХНИК ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Ризаева Шахзодагон Фозил кизи

Навоий Абу Али ибн Сино номидаги Жамоат
саломатлиги техникуми ўқитувчиси
Телефон +998934375952

Ўқитиш жараёнида кўргазмали усуллардан фойдаланишнинг муҳимлиги ўқитувчининг ўрганилаётган нарс ва ҳодисаларни ҳиссий идрок этишга, уларни кузатиб мушоҳада қилишга, ўқувчини ундаш ва уларнинг назарий билимларни амалиётда қўллай олишга ўргата билиши билан изоҳланади. Ё Дарсда буюм ва нарсаларнинг асли, тасвири, техник воситалар, тасвирий-кўргазмали қуроллардан фойдаланиб ўтилса, яъни мавзу шу асосда баён этилса дарс тўғри ташкил қилинади ва самарали яқунланади. Ўқув материалнинг кўрсатмалли бўлиши ёшларни ўзлаштирилган илмий билимларни тажрибада, ишлаб чиқариш амалиётида қўллай олишлари учун зарур бўлган кўникма ва малакалар билан қуроллантиради. Таълим жараёнида кўргазмалилик усули намойиш этиш, иллюстрация ва экскурсия тариқасида олиб борилади. Ўқитишда намойиш этиш усулидан фойдаланиш материалларнинг характериға – мазмуни, шакли ва ҳажмиға боғлиқдир. Кўргазмали материаллар характер эътиборига кўра икки турда бўлади: 1.Аслича кўрсатилиши мумкин бўлган буюм ва нарсалар: беморлар,ўсимликлар, ҳайвонлар, коллекциялар, асбоб ва усқуналар, моделлар ва ҳ.к.

2.Тасвирий-кўргазмали материаллар: буюм, нарс ва ҳодисаларнинг тасвирини ифодаловчи материаллар: расм, сурат, диафильм, кинофильм, жўғрофия ва тарих карталари, чизмалар, жадваллар, диаграммалар ва ҳ.к. Тасвирий - кўргазмали материаллар – иллюстрация материаллари деб ҳам аталади. Таълим жараёнида тасвирий – иллюстрация материалларидан фойдаланиш кенг қўлланилади. Таълим воситалари (ҳажмли табиий объектлар, тоғ жинслари, қазилма бойлик намуналари, ўсимликлар, машиналар, деталлар, материаллар, объектлар тасвири, босма ўқитиш воситалари ва ҳоказо) нинг мазмунини ўқувчиларға етказиб бериш катта қулайликлар яратиб, узатилаётган материални ўқувчилар томонидан тез идрок қилишларида замин яратади. Бундан ташқари ўтилган матириал ўқувчлар хотирасида узок вақт сақланишида ёрдам беради. Таълим воситалари қуйидаги турларға бўлинади: Таълим воситалари турлари Ўқитишнинг техник воситалари ўқиш воситалари мазмунини ўқувчиларға етказиб берувчи ўқитиш қуролидир. Ўқитишнинг техник воситалари ўқитиш воситалари билан биргаликда ишлатилади. Ўқитиш техник воситалари ўқитиш жараёнида тутган ўрниға қараб информацион, назорат ва дастурлашган техник воситалариға синфланади. Таълим жараёнида кўргазмали қўлланма ва ўқитишнинг техник воситаларидан фойдаланиш орқали талабалар томонидан ўзлаштириладиган материал пухта ўзлаштирилишиға, узок вақт хотирасида сақланишиға, идрок қилиш вақтини қискартиришға замин яратилади. Бунда ўқитувчи дарсға ажратилган вақтдан унумли фойдаланади, талабалар диққатини ўқув материалига жалб қилади ва талабаларда фанға нисбатан ижобий муносабатларини шакллантиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ишмуҳамедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. –Т . 2019. Й
2. Таълим ва тиббиёт 2020 №2



БИЛИМГА АСОСЛАНГАН ИҚТИСОДИЁТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР

Тураева Феруза Хайриддиновна
Навоий Абу Али ибн Сино номидаги Жамоат
саломатлиги техникуми ўқитувчиси
Телефон +99891531777

Жаҳоннинг етакчи мамлакатларининг тараққиёти янги – билимлар, инновациялар, глобал ахборот тизимлари, янги технологиялар иқтисодиётини шакллантиришга олиб келди. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг мутахассислари томонидан билимга асосланган иқтисодиётга батафсил таъриф берилган, яъни билимлар барча тармоқлар, барча секторлар, иқтисодий жараёнларнинг барча қатнашчиларини бойитадиган иқтисодиётдир. Билимга асосланган иқтисодиёт инновацион иқтисодиётнинг олий босқичи ҳисобланади. Билимга асосланган иқтисодиёт атамаси кўпгина ҳолларда инновацион иқтисодиёт синоними сифатида ишлатилади. Билимга асосланган иқтисодиёт инновацион иқтисодиётни ривожлантиришнинг олий босқичидир. Бунинг моҳияти шундан иборатки, билимлар ва махсус ноёб кўникмалар барқарор иқтисодий ўсишнинг асосий манбаи ва ҳал қилувчи омилига айланади. Иқтисодиёт турли Ўқув дидактик воситалар (предметли), матнли, тасвирли ёки аудио–визуал воситалар Меҳнат соҳасида ишлатиладиган асл нарсалар (жиҳозлар, тайёр маҳсулотлар) билимлардан фойдаланибгина қолмасдан, балки мазкур билимларни юқори технологияли маҳсулотлар, юқори малакали хизматлар сифатида яратади. Инновацион бошқарув республикамиз иқтисодиётида янги тушунча бўлиб, у ўз ичига фан-техника тараққиёти ва илмий-техник ютуқларни ишлаб чиқаришга жорий этишнинг асосий жиҳатларини қамраб олади. Бозор иқтисодиёти шароитида инновацион фаолиятни асосий йўналишларидан бири – мавжуд ресурслардан оқилона тарзда фойдаланиш, уларни бошқариш усуллари танлаш натижасида инновацион жараён орқали корхона, ташкилот, муассаса, жамғармаривожланишига эришишдир. Билимга асосланган иқтисодиёт инновация бозорга кириб келган янги ёки такомиллаштирилган маҳсулот, амалда қўлланиладиган янги технология ва ижтимоий хизматга бўлган янгича ёндошувлардаги инновацион фаолиятдир. Инновация (инглизча “innovations” – киритилган янгилик — ихтиро сўздан олинган) – фан-техника ютуқлари ва илғор тажрибага асосланган техника, технология, бошқариш ва меҳнатни ташкил этиш каби соҳалардаги янгиликлар бўлиб, уларнинг турли соҳалар ва фаолият доираларида қўлланилишидир. Маъруза муаллифларининг фикрича, дунё мамлакатлари иқтисодиётнинг муваффақиятли ривожланиши инновацион салоҳият ва қулай шарт-шароитларнинг мавжудлиги билан бевосита боғлиқ. Бундай ҳолатни баҳолашда ҳар қайси мамлакатнинг инновациялар бўйича индекси алоҳида ўрин тутди. Мазкур индекс эса қуйида баён этилган икки гуруҳ кўрсаткичлари бўйича йиғилган умумий баҳолар асосида ҳисобланади. Биринчи гуруҳ – инновацияларни амалга ошириш учун мавжуд ресурс ва шароитлар; институтлар; инсон капитали ва илмий тадқиқотлар; инфратузилма; ички бозор ва бизнеснинг ривожланиши. Иккинчи гуруҳ – инновацияларни амалга оширишнинг амалий натижалари; технологиялар ва иқтисодиёт ҳақидаги билимларни ривожлантириш; креатив фаолият натижалари. Ахборот алмашиш, тарқатиш ва қайта ишлашни таъминлайдиган ресурслар (оммавий ахборот воситалари, Интернет ва бошқалар) Билимлар эркин ҳаракатланиши, ахбороткоммуникация технологияларини жорий қилиш ва тадбиркорликни ривожлантиришга қўмаклашадиган умумиқтисодий муҳит Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш – мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шарти мавзусидаги халқаро конференцияда дунёдаги саккизта нуфузли халқаро ташкилот ва молия институтлари, жумладан, БМТ, Жаҳон банки, Буюк Британия, Германия, Италия, Хитой, АҚШ, Жанубий Корея, Япония, Россия каби дунёнинг 48 давлатидан 270 нафар иштирокчи, таълим тизими раҳбарлари, олимлар ҳамда мутахассислар иштирок этиб, узлуксиз таълим соҳасини ривожлантириш ва ёш авлодни баркамол этиб тарбиялашнинг миллий моделини яратишда Ўзбекистон тажрибасини ўргандилар. Халқаро конференция иштирокчилари Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, Мактаб таълимини ривожлантириш умуммиллий дастури доирасида юртимизда амалга оширилган ишлар билан яқиндан танишдилар, академик лицей ва касб-хунар коллежларида, техникумларда, олий ўқув юртларида бўлиб, Ўзбекистонда таълим



соҳасида шаклланган самарали моделни юксак баҳоладилар. Ўзбекистон тажрибасини бошқа мамлакатлар учун намуна сифатида тавсия этиш мумкин, деган хулосага келдилар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Ишмуҳамедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. –Т . 2019. Й
- 2.Таълим ва тиббиёт 2020 №2



BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TADBIQ ETISHNING DIDAKTIK SHARTLARI.

Abdullayeva Vazira Zafarovna

Kattaqo‘rg‘on tuman 17- maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limning samaradorligini oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni, ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik shart- sharoitlari, didaktik imkomiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, samaradorlik, hamkorlik, innovatsion faoliyat, axborot texnologiyalari, faollik.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ijodkorlik qobiliyatlarini tez rivojlantiradilar. Chunki kompyuterda yaratilgan eskiz va rasm, ma’lumotlarni bemaolol o‘zgartirishi, sayqal berishi, ularni turli rangga kiritish mumkin.

O‘qituvchilar boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda yangi o‘quv materialini o‘qitish mohiyatidan kelib chiqib, o‘quv materiali, o‘quv topshirig‘i, ta’lim uslubi, vositalarini tahlil etish bilan bir qatorda axborot texnologiyalariga tayangan holda o‘quv materiallarni tanlaydi.[1.45] Shundan so‘ng o‘quvchilarga zarur ma’lumotlarni beradi. Kompyuterdan foydalanib boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim berish bugungi kunning eng ilg‘or g‘oyalariga asoslanadi.

Kompyuterlarni o‘quv jarayoniga tadbiq etish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o‘quvchilarda yangilikni bilish ehtiyojini paydo qiladi;
- o‘quvchilarda ko‘proq axborot olishi imkoniyati oshadi;
- o‘quvchilarda boshlang‘ich ta’lim fanlari bilan bir qatorda boshqa fanlarga ham kompyuter bilan ishlash orqali o‘rganib boradi;
- kompyuter ijodiy yondashuvni ta’minlaydi;
- o‘quvchilar keng qamrovdagi ma’lumotlarga ega bo‘ladi;
- internet bilan bog‘lanib yangi materiallarni o‘rganib boradi;
- o‘ziga bo‘lgan ishonchi oshadi va o‘z-o‘zini baholab boradi.

Boshlag‘ich ta’limda fan o‘qituvchilari dars o‘tish jarayonida in-formatsion texnologiya elementlarini misollar yordamida o‘quvchilar ongiga singdirib boradi. Ayrim mavzularni yoritishda kompyuterdan foydalanib, o‘quvchilarda kompyuter savodxonligini shakllantiradi. Buning uchun fanlarga doyr mavjud bulgan o‘quv-pedagogik dasturlardan foydalanadi. .[2.57] Foydalanilayotgan o‘quv-pedagogik dasturlardagi mavzular o‘quvchi yosh xususiyatiga bog‘liq holda tanlanadi va oddiydan murakkabga qarab boruvchi misollar asosida tushuntiriladi. O‘quvchi olgan saboqlari asosida kompyuterdan samarali foydalanadi. Jumladan, boshlang‘ich maktablarda:

1. Fan mavzulariga oid o‘quv-pedagogik dasturlarni murakkablashtirib borish;
2. Oddiy so‘zlarni yozish;
3. Berilgan matndagi tushirib qoldirilgan harf yoki belgilarni qo‘yib chiqish;
4. Turli rasm va shakllarni chizish;
5. Bir necha gapdan iborat matnlar yozish, bir necha varaqli matnlarni kiritish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida dars jarayonini tashkil etish va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarda quyidagi xususiyatlarning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi:

- ta’lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi va istiqbolli loyihalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi;
- axborotlarni yig‘ish qayta ishlash va uzatishni tashkil etishni hamda ularda foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- zamonaviy kompyuterlar shu jumladan maktab kompyuterlar bilan ishlash orqali axborot bilan ishlash kompetensiyasi shakllanadi va takomillashib boradi;
- kompyuter tarmoqlari va ularning turlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi, Internet tarmog‘i foydalanish ko‘nikmalarida ega bo‘ladi;
- o‘quvchilar kompyuterdan mustaqil foydalanish orqali o‘zini- o‘zi baholash ko‘nikmasi shakllanadi (testlar, multimedia ilovalari qo‘llanmalar bilan ishlaganda)



- ta'lim tizimi uchun joriy etilgan pedagogik dasturlar va elektron darsliklardan foydalanish asoslarini bilishi, ularni dars jarayonida samarali qo'llay olish malakasiga ega bo'ladi:

- komp'yuterlashtirilgan dars haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Ushbu talablar barcha o'quv fanlari o'qituvchilarni axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida dars jarayonini tashkil etish, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasiga o'rgatish maqsadida tashkil qilinadi, shuningdek, o'qish davomida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik faoliyatlarida qo'llash bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni egallaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyev M., Salaxutdinov R., Barakayev M., Abdalova S. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T., 2001.
2. Xo'jayev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. – T., 2003.



BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QISH DARSLARIDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI (4- SINFLAR MISOLIDA)

Elmurodova Guljaxon Gulomovna
Kattaqo‘rg‘on tuman 17- maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari aks ettirilgan. O‘qish darslarida va sinfdan tashqari o‘qish darslarida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishning o‘ziga xosligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, badiiy asar tahlili, kompetensiya, individual yondoshuv, dars, sinfdan tashqari o‘qish, o‘qish savodxonligi, samaradorlik, natija.

PIRLS-(Progress in International Reading Literacy Study) — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu tadqiqotning maqsadi esa, dunyoning turli mamlakatlarida tahsil oluvchi boshlang‘ich sinf (4-sinf) o‘quvchilarini matnni o‘qish va tushunish darajalarini taqqaslovchi, shuningdek, mamlakatlar milliy ta‘lim tizimida o‘qish savodxonligi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni taqqoslashga moslashgan xalqaro baholash loyihasi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartida belgilab berilgan “Umumiy ta‘limning poydevori bo‘lgan boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarini ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga keng dunyoqarash, aqliy kamolotga erishish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmog‘i lozim” ekanligi belgilab berilgan.

Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish” fanining o‘quv dasturida fanga oid kompetensiya sifatida adabiy nutqiy kompetensiya bilan birgalikda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasining mazmuni esa 3 va 4- sinflarda o‘qish darslarining kattagina qismi asarni o‘qish va matn ustida ishlashga qaratiladi. Suhbatlar, hikoya qilishlar, dastlabki o‘qishlar o‘qilgan matnlar mazmuni bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi, mavzuga qiziqish uyg‘otishi, o‘quvchilarni his-hayajon bilan o‘qishga tayyorlashi va asarni to‘g‘ri tushunishga yordam berishi zarur.

Darsda o‘quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo‘lib o‘qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og‘zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.

4- sinfda badiiy asarni tahlil kompetensiyasining mazmuniga dars jarayonida “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limida keltirilgan xalq qo‘shiqlari, ertak, topishmioq, tez aytish, maqol, masal, rivoyatlar asosida o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish va ularga baho berish, o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish va matndagi so‘z va so‘z birikmalarining ma‘nolarini tushuna olish va izohlay olish, xalq og‘zaki ijodi namunalari va boshqa asarlarni bir-biridan farqlay olish kiritilgan. Darslikka kiritilgan “Vatanimiz o‘tmishidan” nomli bo‘limning mazmuniga kiritilgan mavzular bo‘yicha shakllantiriladigan badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasining mazmuniga o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish va ularga baho bera olish, o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish va matndagi so‘z va so‘z birikmalarining ma‘nolarini izohlay olish kabilar kiritilgan.

O‘qish darslari orqali badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda sinfdan tashqari o‘qish darslari ham keng imkoniyatga ega. Sinfdan tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi.

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari ikki haftada bir marta o‘tkaziladi va o‘qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi. Badiiy – adabiy asarlar mustaqil ravishda va izchil o‘qib borilsa, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.



Sinfдан tashqari o‘qish, tanish bo‘lmagan muallifning kitoblari, muqovasi, titul varag‘i, kirish so‘zi, mundarijasi va rasmlariga qarab asarning taqvimiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bolalarga ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy – estetik tafakkurini yuksaltirish o‘qish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

O‘qish darslarida badiiy asar tahlili ustida ishlashni tizimli yo‘lga qo‘yish orqali badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi shakllantiriladi. Bu esa pedagoglar zimmasidagi mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, intellektual jihatdan taraqqiy etgan, hayotiy kompetensiyalari shakllangan yosh avlodni tarbiyalashdek dolzarb vazifani ijobiy hal qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich ta’limdan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – T.: RTM, 2017. – 215 b.
2. Shodiyeva Q. Nutq o‘stirish uslubiyoti. – T.: O‘qituvchi, 2008. – 304 b.
3. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O‘qish kitobi (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2017/2020. – 216 b/160 b.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY KAMOLOTIDA UYGA VAZIFALARNING O‘RNI

Mirzayeva Baxora Yusupovna
Samarqand shahar 27- maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy- ahloqiy jihatdan tarbiyalashda uyga vazifalarning o‘rni aks etgan. Uyga vazifalarning o‘quvchi ma’naviy kamolotini oshirishdagi didaktik imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, uyga vazifa, ma’naviy- ahloqiy tarbiya, hamkorlik, ma’naviy kamolot, pedagogik munosabat, o‘zaro hamkorlik, o‘quvchi faoliyati, natija.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Mustaqil fikrlashga, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- apreldagi PF- 5712 sonli Farmoniga asosan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida “Davlat ta’lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o‘qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o‘quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda”, -deb takidlangan.

Konsepsiyada xalq ta’limi sohasidagi mavjud muammolarning yechimi, o‘quvchining mustaqil faoliyatini tashkil etish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda uyga vazifalar muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘quvchilarda mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishda o‘qish darslaridan uy vazifalarini tashkil etishning innovatsion yondashuvga asoslangan metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishini belgilab beradi.

Maktab hayotining hamma bosqichida darslik o‘quvchi uchun zarur va asosiy qo‘llanma hisoblanadi. Yuqori sinflarda adabiyot fanini o‘rganishda o‘quvchilarning o‘qishi, ularning badiiy asar yoki asar haqidagi maqolalar ustida ishlashini tashkil etish uchun o‘qituvchi boshlang‘ich ta’limdagi shunday faoliyat bilan bog‘liq uy vazifalariga ko‘proq e’tibor qaratishi kerak. Bunday topshiriqlar darslikdagi adabiy matn mazmunini uyda, mustaqil ravishda o‘zlashtirib olishga, badiiy so‘z mohiyatiga kirishga ko‘maklashadi. [3.56- b]

Darslik bilan ishlash bo‘yicha uy vazifalarining taxminiy me’yori boshlang‘ich sinflarda 10–15 daqiqa. Faqat bunday topshiriqlar sinf, vaziyat va alohida o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi, har bir o‘quvchining intellektual imkoniyatlari doirasida berilishi, shu bilan birga topshiriqlarning bir xilligi hamda bir birini takrorlashidan qochish kerak.

Savollarga javob berish, matnning ma’lum bo‘limi rejasini tuzish, o‘qilgan matn yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish, o‘qituvchining savollari, qo‘yilajak muammolar ustida ishlashga tayyorgarlik, asar matni asosida tezislar yaratish, sinfda taqdim etilgan reja asosida matndan materiallar ajratish va hk. shakllarda bo‘lishi mumkin.[4.32-b] Uyga beriladigan topshiriqlarning barchasi adabiy ta’limning bosh maqsadi asosida tashkil etilishi lozim.

Adabiy ta’limda uyda o‘qish uchun beriladigan topshiriqlar darslikdagi o‘quv materiallari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uyda o‘qish uchun beriladigan asarlar boshlang‘ich maktabning 3–4- sinf o‘quvchisi uchun bir yilda 12–14 ta kitobni tashkil qiladi. Bu raqamlar sirasiga darslikda parcha berilgan asarlarni ham kiritish mumkin.[3.89-b] O‘qituvchi sinfdan tashqari o‘qish uchun darslikda parcha berilgan asarlarni to‘liq o‘qishni tavsiya etishi, ayrim qo‘shimcha asarlardan na’mana o‘qib o‘quvchilarni qiziqtirib olishi va shu asnodan ularni uyda o‘qishga berishi mumkin.

Adabiy ta’limning boshlang‘ich bosqichida o‘qilgan asarlar yuzasidan uy vazifasi sifatida:

- sinfda o‘tilgan mavzuni uyda qayta o‘qish;
- o‘qiganlarining rejasini tuzish va reja asosida qayta ijodiy hikoyalash;
- asar yuzasidan uning matnini takrorlashga emas, mustaqil mulohaza yuritib, o‘z fikrini aytishga undovchi mantiqli savollar tuzish va ularga javob berish;
- sinfdan tashqari o‘qiladigan asarlar ustida ishlash uchun topshiriqlar berish;
- mustaqil ishlar;



- lug‘at bilan ishlash;
- yozma va og‘zaki insho;
- matnni bo‘laklarga ajratish va ularning mazmuniga mos sarlavha topish;
- asar matni qismlari bo‘yicha sarlavhalar tavsiya etib, mavjud matnni shu sarlavhalarga mos tarzda bo‘laklarga bo‘lishni talab qilish;
- har bir bo‘lakning rejasini tuzish va shu reja asosida gapirishga tayyorlanish;
- ertak, topishmoq, she‘r, tush va hikoyalar to‘qish;
- asarlar matni yuzasidan tayyorlangan suratlar ustida ishlash;
- matn yuzasidan berilgan savol-topshiriqlar bo‘yicha og‘zaki va yozma ishlar berish mumkin.

Bunday topshiriqlarni sinfda va uyda almashtirib bajarish ham o‘quvchining tafakkuri hamda faoliyati mustaqilligini ta’minlaydi. Ma’naviyatini boyitadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. –T., 2019. – 32 b.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Barkamol fayz media, 2018. – 352 b.



ТИББИЙ ТАЪЛИМДА СИМУЛЯЦИОН ТАЪЛИМНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Дилфуза Камбарова,
Педагогик инновациялар институти
мустақил тадқиқотчиси

Жаҳонда малакали тиббий ходимларга бўлган эҳтиёжнинг юқорилиги тиббий таълим жараёнини инновацион ёндашув ва замонавий усуллар асосида ривожлантириш, амалга оширишнинг илмий асосланган тизимини яратишнинг долзарблигини оширмоқда. Жумладан, ўрта тиббий ходимларни касбий фаолиятга тайёрлашда таълим жараёнини инновацион технологиялар воситасида такомиллаштириш орқали уларнинг амалий компетенцияларини, прогностик-таҳлил қилиш кўникмаларини, мустақил ҳаракат қилиш, ўз-ўзини ривожлантириш, намоён қилиш ва бошқариш, ностандарт фикрлаш, танқидий таҳлил ва мақбул қарор қабул қилиш, доимий равишда янги ғоя, технологияларни излаш, топиш, яратиш ва амалда татбиқ этиш кўникмаларини ривожлантириш муҳим ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, тиббий таълим жараёнида инновацион технологияларнинг турли вариантларини қўллаган ҳолда, унинг ўзига хос хусусияти, ўқитиш мазмуни ва ўқув жараёнининг самарали дидактик таъминотини ишлаб чиқиш, аввало, ўқув жараёни амалиётида фойдаланиладиган виртуал симуляцион воситаларин такомиллаштиришни тақозо этади.

Е.М.Ибрагимованинг фикрича симуляцион ва имитацион таълим муаммоли вазиятларга асосланганлигини таъкидлайди, бунда вазият иштирокчиларининг ҳаракат шартлари тавсифланади касбий фаолият, касбий муаммоларни ҳал қилиш тажрибасини тўплаш, юзага келадиган муаммоларни таҳлил қилиш ва ҳал қилиш қобилияти ривожланади.

Тиббий таълимда имитация ва симуляцион таълимдан ташқари бошқа таълим усуллари унчалик самара бермайди, кўплаб олимларнинг фикрига кўра бўлажак ҳамширанинг ақлий фаолиятини фаоллаштиришни таъминлайдиган, таҳлил қилиш ва танқидий фикрлаш қобилиятини, ўз фикрини ифода этиш қобилиятини ривожлантирадиган имитацион вазиятли машғулотлар амалий компетенцияни таркибий қисмларини шакллантиришга хизмат қилади.

Тиббий таълимдаги симуляция - бу реал моделлаштириш воситаси, клиник ҳолат ёки алоҳида физиологик тизим бўйича симуляциялар биологик, механик, электрон ва виртуал шаклда бўлиши билан бирга амалий кўникмаларни шакллантириш ва баҳолашнинг замонавий усулидир.

Таълимда симуляция услубларига қуйидагилар киради:

- симуляторлар ва манекенлар орқали амалий фаолиятни имитация қилиш;
- муаммоли вазиятларни ҳал қилишда симуляцион воситалардан фойдаланиш
- расмий ролларни ижро этиш билан, ўйин услубида амалиёт ўташ;
- ишбилармонлик ўйини.

Е.М.Ибрагимованинг таъкидлашича симуляцион таълимни компетенцияга асосланган ёндашувни амалга оширишда нафақат ўқув ва билим фаолиятини фаоллаштириш ва рағбатлантиришга, балки малака талабларида белгиланган компетенцияларни (умумий маданий ва касбий) шакллантириш мақсадида қўллаш лозим. Биз Е.М.Ибрагимованинг фикрига қўшилган ҳолда бўлажак ҳамширанинг амалий компетенцияларини шакллантириш жараёнида симуляцион таълимни ва имитация усуллари қўллашни энг самарали усул деб ҳисоблаймиз. Симуляция машғулотлари турли хил касбий вазифаорни бажаришга, амалий тажриба кўникмаларини шакллантиришга, бўлажак ҳамширанинг касбий йўналишини ривожлантиришга ва такомиллаштиришга ёрдам беради. Касбий фаолиятга тайёрлашда симуляция усулларида фойдаланиш мутахассислар диққатни яъни фокусни, хотирани ривожлантиради. Шунингдек беморлар билан ишлашда алоқа тўсиқларини олиб ташлашга ёрдам беради.

Биз асос қилиб олган симуляция усуллари афзалликлари:

- ҳамширалик хизматларини стандартларга мувофиқ бажариш техникасини ўзлаштирганда профессионал муҳитга тақлид қилиш учун шароит яратиш (амалий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган умумий ва касбий ваколатларни шакллантириш);
- беморнинг соғлиғига зарар етказмасдан ва манипуляция пайтида ўзларининг юқумли хавфсизлигини таъминламасдан амалий тажриба қобилиятларини ривожлантириш;



- “амалий фаолиятга киришишда” ёш мутахассиснинг мослашиш даврини қисқартириш ва бошқалар келажакдаги ҳамширанинг амалий малакасини шакллантириш жараёнида энг долзарб ҳисобланади.

Хулоса ыилиб айтганда симуляцион таълим максади – тиббий фанларини ўқитишда инновацион технология – симуляцион муляжларда тегишли амалий кўникмаларни бажаришда қўллаш орқали таълим самарадорлигини ва амалий компетенцияларни ривожлантиришдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ибрагимова Е.М. О формах и метода интерактивного обучения в высшей школе / Дидактика профессиональной школы: сборник научных статей/Под ред.член-корр. РАО Г.И. Ибрагимова. - Казань: Издательство «Данис», ИПП ПО РАО, 2013. С. 62-68.
2. Ф.А.Акилов, Р.Б.Нуруллаев, Ж.Х.Мирхамидов, Х.Б.Худайбердиев, Р.С.Азизова. Хамширалик иши. Ўрта махсус, касб-хунар коллежларининг тиббиёт йўналиши бўйича таълим олаётган ўқувчилар ва ўрта тиббиёт ходимлари учун ўқув қўлланма.
3. Состояние сестринского дела в мире, 2020. ВОЗ.144 с.
4. Вербицкий, А.А. Контекстное обучение в системе профессионального образования / А.А.Вербицкий // Медицинская сестра, - 2011. - № 6. - С.25.
5. Глухих, С.И. Интегративно-деятельностный подход к подготовке медицинских сестёр в непрерывном профессиональном образовании/ С.И. Глухих// Автореф. дис.канд. пед.наук: 13.00.08. Москва 2012, 302с.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000